



KO'PAYSINOV ISMOYIL AHMADJANOVICH

O'RTA OSIYODA PALEOGRAFIYA, EPIGRAFIKA VA ME'MORCHILIK TARIXI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ARXIVSHUNOSLIK KAFEDRASI

KO'PAYSINOV ISMOYIL AHMADJANOVICH

**O'RTA OSIYODA PALEOGRAFIYA, EPIGRAFIKA
VA ME'MORCHILIK TARIXI**
fanidan

seminar mashg'ulotlar uchun

USLUBIY QO'LLANMA

NAMANGAN – 2019

Mazkur uslubiy ko'rsatma Tarix ta'lim yo'nalishining bosqichi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, u Namangan davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2018 yil 3 sentabrdagi 1-sonli yig'ilishida tasdiqlangan muvaqqat dastur asosida tayyorlanagan bo'lib, unda tarix ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarga oid atamalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar berish belgilab berilgan.

Tuzuvchi:

I. Ko'paysinov

Taqrizchilar:

A. Sarimsokov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Z. Madrahimov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2019 yilning 18 dekabrdagi 5-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati bilan o'z taraqqiyotining yangi davriga kirdi. Xalqimiz o'zining boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosining chin ma'nodagi sohibiga aylandi.

O'zbekiston hududidan topilgan paleagrafik ma'lumotlar va ularning ahamiyati yurtimiz tarixi uchun qimmatli manbalar hisoblanadi. Yurtimiz hududidan topilgan yozuv va harflarning grafikasi, xususiyatlarini, harflarning rivojlanishini, yozuvning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, qo'lyozmadagi matnni xatosiz o'qiy olish; qo'lyozma manbaning yozilgan vaqtini aniqlash; qo'lyozma yaratilgan hududni aniqlash; qo'lyozma kim tomonidan yozilganligini belgilash; qo'lyozmaning asl nusxa yoki qalbaki ekanligini aniqlash kabilar o'rganiladi.

Yurtimiz hududidan topib o'rganilgan Epigrafik manbalar ham bizga qimmatli ma'lumotlar beradi. Manbalardagi tosh, metall, sopol va me'moriy yodgorliklarning u yoki bu qismiga yozilgan qadimiy va o'rta asrlarga oid yozuvlar (bitiklar)ni to'plash, ularni tadqiq qilish, nashr etish va sharhlash bugungi kun tarixchilari oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu vazifalarni epigrafik bilimlarni rivojlantirish orqali amalga oshirish zarurdir.

Mustaqillik sharofati bilan ming yillik me'morchilik va shaharsozlik tariximizni, hattoki borib ko'rish ta'qiqlangan arxitekturaviy yodgorliklarni nafaqat ziyorat qilishga, balki ularni o'rganishga va restavratsiya qilishga ham keng imkoniyatlar yaratildi. Vatanimizda qadim zamonlardan boshlab yaratilgan nodir me'moriy obidalarni, shaharsozlikning yaratilish tarixini, qurilish usullari va qoidalarini talabalarga xolisona o'rgatish imkoniyati paydo bo'ldi. "O'rta Osiyoda paleografiya, epigrafika va me'morchilik tarixi" fani bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma yuqorida aytib o'tilgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

1- mavzu: «O'rta Osiyoda paleografiya, epigrafika va me'morchilik tarixi» fanining maqsad va vazifalari.

Reja:

1. O'rta Osiyo tarixini o'rganishda paleografiyaning tutgan o'rni, maqsadi va vazifalari.
2. O'rta Osiyo tarixini o'rganishda epigrafikaning tutgan maqsadi va vazifalari.
3. O'rta Osiyo tarixini o'rganishda me'morchilik tarixining tutgan o'rni, maqsadi, vazifalari, bugungi kundagi ahamiyati.

Maqsad: *Talabalarga O'rta Osiyo tarixini o'rganishda paleografiya, epigrafika va me'morchilik tarixining tutgan o'rni, maqsadi, vazifalari va bugungi kundagi ahamiyatini tushuntirishdan iborat.*

Paleografiya so'zi istiloh sifatida ikkita yunoncha so'zdan tashkil topgan: «palayos» – qadimgi va «grafo» – yozaman. Paleografiya fani qo'lyozma manbalarning tashqi belgi-xususiyatlarini tarixiy rivojlanishda o'rganadi.

Paleografiya fani o'rganadigan u yoki bu qo'lyozma manbaning tashqi belgi-xususiyatlari quyidagilardan iborat: qo'lyozma harflari, bu harflarning yozilish xususiyatlari, yozuv turi, qo'lyozmaning materiali, yozuv qurollari, qo'lyozmada ishlatilgan bezaklar, qo'lyozma yozilgan siyoh, qo'lyozmadagi tamg'alar, muhrlar, qo'lyozmaning formati, qo'lyozma muqovasi va boshqa tashqi belgilar.

Paleografiyaning vazifasi quyidagilardan iborat: harflarning grafikasi, xususiyatlarini, harflarning rivojlanishini, yozuvning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, qo'lyozmadagi matnni xatosiz o'qiy olish; qo'lyozma manbaning yozilgan vaqtini aniqlash; qo'lyozma yaratilgan hududni aniqlash; qo'lyozma kim tomonidan yozilganligini belgilash; qo'lyozmaning asl nusxa yoki qalbaki ekanligini aniqlash va hakoza.

Paleografiya ilmiy fan sifatida epigrafika, sfragistika, numizmatika, xronologiya, shuningdek manbashunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu fanlar bir-birini o'rganishga yordam beradi va o'zaro bir-birini to'ldiradi.

Paleografiyaning ish uslubi: paleografiyaning uslubi asosida qo‘lyozmadagi bir qator belgi-xususiyatlar, masalan, xarflarning grafikasi, yozuvda ishlatilgan material, qo‘lyozmadagi bezaklar, qo‘lyozmani yozishda ishlatilgan yozuv qurollari ustidan o‘tkaziladigan kuzatishlar, shuningdek bu xususiyatlarning tarixiy bir davr uchun o‘zaro mos kelish-kelmasligini aniqlash ham bu fanning ish uslubiga kiradi.

Epirafika qattiq jismlar – tosh, metall, sopol va mye'moriy yodgorliklarning u yoki bu qismiga yozilgan qadimiy va o‘rta asrlarga oid yozuvlar (bitiklar)ni to‘plash, ularni tadqiq qilish, nashr etish va sharhlash bilan shug‘ullanuvchi yordamchi tarix fanidir.

Epigrafika fan sifatida Yevropada Uyg‘onish davrida vujudga kelgan. Bu esa antik davr tarixi, madaniyati, shuningdek Sharq mamlakatlari tarixi va Bibliyaga bo‘lgan umumiy qiziqishning ortishi bilan bog‘liq edi. Epigrafikaning dastlabki bosqichlarida u Italiyadan, Gresiyadan, Shimoliy Afrika mamlakatlaridan va Palastindan topilgan, ya'ni lotin, grek, qadimgi yahudiy va finikiy tillarida yozilgan bitiklarnigina o‘rgangan. 18-19 asrlar davomida bu fan o‘zining metodikasini ishlab chiqdi. Bunga binoan epigrafika fani bitiklarning qalbaki emasligini aniqlash, undagi yozuvning xarakteriga qarab ularning bitilish sanasini topish, ulardagi ramziy belgilarning ma'nolarini o‘rganish, qisqartmalarning qanday so‘z ekanligini aniqlash kabi vazifalarni ham bajara boshladi. Epigrafika fanining bu metodikasi yozuvning paleografik xususiyatlariga qarab, bitilmalarni yozilish sanasini aniqlash, bitikdagi matnning o‘chib yoki yo‘qolib ketgan qismlarini qayta tiklash imkonini yaratgan.

Samarqand shahrining 2750 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shahrining 2200, Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubileyleri nishonlandi. Buyuk sohibqiron va atoqli davlat arbobi Amir Temur, jahonga mashhur vatandoshlarimiz Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Marg‘inoniy, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Najmiddin Kubro, Imom al-Moturdiy, Jaloliddin Manguberdi singari jahonga mashhur

kishilarning qadamjolari mamlakatimizning bosh me'mori – davlatimiz Prezidentining tashabbuslari va rahbarliklarida zamonamizdan kelajak avlodga meros bo'lib qoladigan darajada restavratsiya qilindi, tubdan qayta qurildi va yangidan tiklandi. 2007- yilda Islom madaniyatining poytaxti deb tan olingan Toshkent shahrida ulug'vor inshoot – Hazrati Imom masjidi bunyod etildi.

Zamonaviy materiallar va konstruksiyalar asosida, milliylikni o'zida jo etgan, umumiylik bilan uyg'unlashgan ko'plab turar-joy, jamoat hamda sanoat binolari va inshootlari qurildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yo'lida mamlakatimizda yuksak me'morchilik san'ati darajasida akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, maktablar, sport inshootlari, zamonaviy tibbiyot muassasalari, yangicha qishloqlar yaratildi. Ko'plab maydonlar, bog'-rog'lar, oromgohlar xalqqa in'om etildi. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, zavodlar, fabrikalar ishga tushdi. Neft va gaz, gidrotexnika, energetika inshootlari, yangi yo'nalishdagi avtomobil yo'llari, temir yo'llar, ko'priklar, estakadalar va ko'plab boshqa turdagi inshootlar bunyod etilib, foydalanishga topshirildi.

Yurtboshimiz tarixsiz kelajak yo'qligini, vatandoshimiz Abdulla Qodiriy ta'biri bilan aytganda, moziyga qaytib ish ko'rmoq kerakligini e'tiborga olib talaba yoshlarga me'morchilik, shaharsozlik va qurilish tarixini, ularning sir-asrorlarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Vaxitov M.M., Mirzayev SH.R. Me'morchilik. 1 qism. Me'morchilik tarixi. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2010.

5. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
6. Засипкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М., 1948.
7. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
8. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
9. Кляшторный С.Г. Древне-тюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964.
10. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины: Учебник для студентов вузов. – М., 2003.
11. Тарихий манбашунослик. / Ўқув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.
12. Тарихий манбашунослик муаммолари. / Республика илмий-амалий анжумани материаллари. -Т., 2008.
13. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.
14. Хива давлат ҳужжатлари. М.Йўлдошев таҳрири остида. – Т., 1960.
15. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
16. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
17. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. – Buxoro, 2009.
18. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. – Buxoro, 2009.
19. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. – Buxoro, 2009.
20. www.ziyonet.net
21. www.history.ru

2- mavzu: «Paleografiya»ning fan sifatida vujudga kelishi va insoniyat tarixidagi yozuv turlari.

Reja:

1. «Paleografiya»ning fan sifatida vujudga kelishi
2. Insoniyat tarixidagi yozuv turlari
3. O'rta Osiyodagi qadimgi yozuvlar.

Maqsad: *Paleografiyaning fan sifatida shakllanishi. Turli tarixiy davrlarda grafik xatshunoslik shakllarining paydo bo'lish jarayoni, yozma va bosma harflar shakli. Piktografiya. Ideografiya. Maxfiy yozuv (kriptografiya).*

«Paleografiya»ning fan sifatida vujudga kelishi. Paleografiya (paleo... va ... grafin) – yozuv belgilarining yaratilishi va ularning rivojlanishini o'rganuvchi tarixiy-filologik fan; nazariy paleografiya tarixan o'zgargan yozuv xususiyatlarining qonuniyatlarini aniklaydi; amaliy va tavsifiy paleografiya muayyan qo'lyozmaning qachon va qaerda yaratilganini, uni yozgan yoki ko'chirgan shaxsning ishtirokini hamda kotiblarning ish hajmini aniklash maqsadida kotiblarning yoki ayrim qo'lyozmalarning individual (o'ziga xos) jihatlarini o'rganadi.

Paleografiya mustaqil fan sifatida diplomatika (qad. hujjatlar, yorliqlar va qad. yozma manbalarining haqiqiylikini aniqlovchi soha)dan ajralib chiqqan. «Paleografiya» terminini birinchi marta fransiyalik monax Bernar de Monfokon qo'llagan (1708). Paleografiyaning asosiy vazifasi – sanasi ko'rsatilgan qo'lyozmalar yozuvining xronologik va hududiy xususiyatlarini aniklash va tartibga solish va shu asosda muayyan matnda uning yozilish vaqti va joyi ko'rsatilmagan, bu haqda bilvosita ma'lumotlar bo'lmagan qo'lyozmalarning ham davri va joyini aniklashdir.

Paleografiya yozuv belgilarini, asosan, harflar va ularning tarkibiy unsurlarini, satr usti hamda farqlovchi belgilarni, qisqartirib yozish usullari va b.ni o'rganadi. Vaqt o'tishi bilan almashinib va o'zgarib turgan yozuv materiallari va qurollari ham paleografiyaning urganish ob'ektidir. Asosiy yozuv materiallari

hisoblangan palma yaprog'i, papirus, maxsus ishlov berilgan teri (pergament) va, nihoyat, qog'ozdagi yozma manbalarni paleografiya urgansa, boshqa yozma yodgorliklarni paleografiyaga yondosh bo'lgan sohalar o'rganadi. Mas, tosh, yog'och, sopol, metall va sh.k.da saqlangan yozuvlarni epigrafika, muhrlardagi yozuvlarni sfragistika, tangalardagi yozuvlarni numizmatika o'rganadi. Paleograf o'z tadqiqotlarida ana shu yordamchi fan sohalaridan, shuningdek, paleografiyadan ajralib chiqqan filigranologiya (qog'ozdagi suv belgilari asosida qog'ozni ishlab chiqargan korxonani va davrni aniklaydi), kodikologiya (qad. qo'lyozma kitoblarning hoz. holatini o'rganadi), neografiya (hoz. yozuvni, hatto mashinka yozuvi va matbaa mahsulotlarini o'rganadi)dan, matnshunoslik va kitobshunoslikdan yaxshi xabardor bo'lishi kerak.

Insoniyat tarixidagi yozuv turlari. Umuman, insoniyat tarixi yozuvning to'rt qadimiy turini biladi:

1. Piktografik yozuv. Piktografiya (lot. pitus – chizilgan, tasvirlangan va ...grafiya) – yozuvning rivojlanish bosqichlaridan, fonetik yozuvdan oldingi yozuv turi: muayyan axborot mazmunini biron-bir rasm yoki qat'iy ketma-ket kelgan rasmlarda aks ettirish usuli. Amerika indeyslari, Tropik Afrika xalqlari, Avstraliya va Okeaniya tub aholisi, Sibirdagi ayrim elatlar (yukagir, nanay va b.) orasida tarqalgan va hatto 20 asr gacha amal qilib kelgan. Piktografiyaning kad. namunalari paleolitga (ayrim olimlarning fikricha – neolitga) mansubdir. Garchi, shuni aytish kerakki, paleolit davridagi suratlar bilan piktografiya orasiga chega-ra qo'yish mumkin emas.

2. Logografik yozuv. Bu istiloh lotincha «logos» - so'z, mantiq va «grafo» - yozaman so'zlaridan shakllangan. Jamiyat rivojlanishda davom etar ekan, har bir predmet yoki har bir tushuncha shu predmet yoki tushunchaning surati yordamida ifodalana boshlagan. Demak, yozuvning bu turida ifodalangan shakl bilan ifodalanishi kerak bo'lgan predmet yoki tushuncha o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjuddir. Shuning uchun bu yozuv logografik yozuv deb nom olgan. Bu yozuvda masalan, ikkita qo'lning surati «jangchi», «askar» ma'nosini ifodalagan. Agar bir qo'lda qalqon, ikkinchi qo'lda nayza surati bor bo'lsa, bu «jang» yoki «jang

qilmoq» soʻzlarini bildirgan. «Koʻrmoq» feʼlini bildirish uchun ikkita koʻz surati xizmat qilgan. «Baxillik», «ochkoʻzlik» maʼnosini timsohni surati bildirgan. Bitta oyoqning rasmi «qadam tashlamoq» maʼnosini ifodalasa, ikkita oyoqning surati «yurmoq», «bormoq» maʼnolariga toʻgʻri kelgan. Yozuvning bu turi ideografiya deb ham ataladi.

3. *Boʻgʻin yozuvi*. Eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikning oʻrtalarida va birinchi ming yillikning boshlarida ilgarigi yozuvga nisbatan qulayroq va soddaroq boʻlgan yozuv shakllana boshlagan. Bu yozuvda soʻzlar hamda ayrim sodda jumlar boʻgʻinlarni bildiruvchi belgilar yordamida ifodalangan. Shuning uchun bu yozuv boʻgʻin yozuvi deb ataladi. Yozuvning bu turi ilgarigi yozuvlardan qulayroq boʻlgan, lekin uning ham oʻziga yarasha nuqsoni boʻlgan. U ham boʻlsa, bu yozuv asosan soʻzlar bir yoki ikki boʻgʻindangina iborat boʻlgan tillar uchun qulay boʻlgan. Bunday tillarga hind tilining ayrim tarixdagi variantlari kiradi. Shu kamchiligi bor boʻlgani uchun bu yozuv boshqa xalqlar orasida kam tarqalgan.

4. Harfiy yozuv. Yozuvning bu turida tildagi har bir tovushga bittadan harf yoki belgi toʻgʻri keladi. Bu tizimdagi yozuv hych bir istisnosiz finikiylar, suriyaliklar va falastinliklar ijod etgan somiy yozuvga borib taqaladi. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Qadimgi fors davlati devonxonalarida davlat ahamiyatiga molik hujjatlar oromiy tilida olib borilgan va bunda finikiylar alifbosining oromiy variantidan foydalanganlar. Keyinchalik vaqt oʻtishi bilan bu alifboning juda koʻp variantlari shakllana boshlagan. Bu variantlarning biri hozirgacha eng koʻp xalqlar tomonidan qoʻllanib kelayotgan arab yozuvidir va kvadrat shaklga ega bulgan yahudiy yozuvidir. Keyinchalik eramizdan avvalgi IV-III asrlarda oromiy alifbosi eroniy tillarda soʻzlashuvchi koʻpgina xalqlar tomonidan ishlatib kelingan. Oʻrta fors yozuvi va Parfiya yozuvi xuddi shu tariqa paydo boʻlgan. Bu alifbo asosida keyinchalik soʻgʻd yozuvi, xorazmiy yozuv va boshqa yozuvlar paydo boʻlgan. Eramizning VII-VIII asriga kelib bu eroniy yozuvlarni arab yozuvi siqib chiqargan.

Oʻrta Osiyodagi qadimgi yozuvlar. Oʻrta Osiyoning bizga maʼlum boʻlgan eng qadimgi xalqlarini shaklar (saklar) va massagetlar tashkil etadi. Bu xalqlarning ham oʻz yozuvlari mavjud boʻlgan. Oʻrta Osiyo xalqlari bilan Gʻarbiy Osiyodagi

davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida O'rta Osiyoga G'arbiy Osiyodan oromiy yozuvi kirib kelgan. Bungacha O'rta Osiyoda fors mixxatidan foydalanishar edi. Oromiy yozuvi mixxatga qaraganda ancha sodda bo'lib, taxminan yigirmata harfdan iborat bo'lgan. Eramizdan avvalgi III-II asrlarda Xorazm, Baqtriya, Parfiya va So'g'd davlatlarida shu oromiy yozuvida kitoblar yozilgan. Shuningdek davlat ahamiyatiga molik diplomatik hujjatlar ham shu yozuvda rasmiylashtirilar edi. Bu davlatlarda qisman grek yozuvi ham iste'molda bo'lgan. Oromiy yozuvida xat o'ngdan chapga qarab yozilgan. Bu yozuvda unli tovushlarni ifodalash uchun harflar bo'lmagan. Oromiy yozuvi zaminida fors yozuvi shakllangan.

Umuman, eramizdan avvalgi IV asrdan eramizning IV asrigacha bo'lgan davrda O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekiston hududida ham quldorlik tuzumi mavjud bo'lgan. Bu hududda o'sha davrda bir necha mustaqil davlatlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'z yozuviga ega edi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
5. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
6. Кляшторный С.Г. Древне-тюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964.
7. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины: Учебник для студентов вузов. – М., 2003.
8. Тарихий манбашунослик. / Ўқув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.

9. Тарихий манбашунослик муаммолари. / Республика илмий-амалий анжумани материаллари. -Т., 2008.
10. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.
11. Хива давлат ҳужжатлари. М.Йўлдошев таҳрири остида. – Т., 1960.
12. www.ziyonet.net
13. www.history.ru

3- mavzu: Arab paleografiyasi tarixi.

Reja:

1. Arab paleografiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi.
2. O'rta Osiyoga arab paleografiyasining kirib kelishi.
3. O'ra Osiyoda arab paleografiyasining takomillashuvi bosqichlari.

Maqsad: *Arab paleografiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi. O'rta Osiyoga arab paleografiyasining kirib kelishi. O'ra Osiyoda arab paleografiyasining takomillashuvi bosqichlari.*

Arab paleografiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi. Eramizning dastlabki yillarida Arabiston yarim orolining shimoliy-g'arbiy qismida Nabatiylar davlati mavjud edi va bu davlatning yozuvi oromiy yozuvi edi. Bu yozuv nabatiylar davlatida ishlatilganligi sababli nabatiylar yozuvi deb ham atalgan. Bu alifbo 22 belgidan iborat bo'lgan. Keyinchalik bu alifbodan hozirgi kunda Afrikaning shimoliy-g'arbiy qismidan Hindistongacha bo'lgan ulkan hududda amalda qo'llanib kelinayotgan va arab yozuvi deb ataladigan yozuv shakllangan.

Ilk arab yozuvining eng qadimgi yodgorliklari Janubiy Suriyadan topilgan bitiklar bo'lib, ular eramizning IV-VI asriga mansubdir.

Eramizning V-VI asriga kelib, arab yozuvi Shimoliy Afrikaga ham tarqalgan edi.

Arablar hayotidagi eng ulkan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy burilish VII asrning boshlarida vujudga kelgan islom ta'limotidir. Bu ta'limotning beshigi o'sha davrdayoq umumarab ahamiyatiga ega bo'lgan savdo markazi Makka shahridir. Islom ta'limotining va uning birinchi kitobi bo'lgan Qur'oni Karimning sharofati bilan deyarli savodsiz hisoblangan ko'chmanchi arablar juda boy va rang-barang yozuvga ega bo'lgan, sivilizatsiyalashgan va madaniy xalqqa aylangan. Shuning uchun ham Qur'on ya'ni kitoblarning onasi deb ataladi.

Islom dini ildiz otib, aholi bu dinga e'tiqod qilishga boshlaganidan, Qur'on va arablarning o'sha davrdagi og'zaki she'riyati asosida arab adabiy tili shakllana boshlagan. Arablarning harbiy sohadagi qo'lga kiritgan yutuqlari, islom dinining qo'shni hududlarda tarqalishi arab tilining obro'-e'tiborini kuchaytirgan. VII asr

oxirida (685-705 yy.) xalifa Abdulmalik davrida (ungacha to'rtta dastlabki xalifalar va Muoviya, Yazid, Marvonlar xalifalik qilishgan edi) xalifalikning poytaxti Damashqda barcha davlat muassasalari va rasmiy yozishmalarni faqat arab tilida olib borish haqida farmon qabul qilindi va bu farmon xalifalikning barcha hududlari uchun umumiy deb e'lon qilindi. Chiqarilgan bu farmon arab tili va yozuvining jamiyatda tutgan mavqeyini yanada mustahkamladi.

O'rta Osiyoga arab paleografiyasining kirib kelishi. Arablar islom dini bilan birga Xuroson va Movaraunnaxrga o'z yozuvlarini ham olib kirganlar. Bu yozuv asta-sekin bu hududlarda tarqala boshlagan va Abbosiylar hukmronligining ikkinchi asri o'rtalarida (X asr boshlarida) Eron hududida amalda qo'llanib turgan pahlaviy yozuvini va O'rta Osiyodagi yozuvlarni butunlay iste'moldan siqib chiqargan. Arab yozuvining bunchalik tez tarqalishiga sabab, birinchidan, muqaddas kitob hisoblangan Qur'oni karim shu yozuvda yozilgan bo'lsa, ikkinchidan, arab yozuvi mavjud mahalliy yozuvlarga qaraganda soddaroq va o'rganish qulay yozuv bo'lgan.

Xuroson va O'rta Osiyoning mahalliy aholisi arab yozuvini hech bir o'zgarishsiz qabul qilgan, lekin bu yangi yozuvga o'tish jarayoni ancha uzoq davom etgan. Shuni ta'kidlash lozimki, arab tilida bor bo'lib, mahalliy tillarda yo'q bo'lgan tovushlarni bildiruvchi harflar ham mahalliy aholi tomonidan qabul qilingan (*se, zol, xoyi huttiy, ayn, itki, izg'i, sod, zod* harflari). Bu harflar ifodalangan tovushlar fors va turkiy tillar fonetikasiga yot tovushlardir. Lekin bu harflar qabul qilinib, ular fors va turkiy tillardagi o'sha tovushga eng yaqin tovush sifatida talaffuz qilingan. Mas., *se, sod* harflari *sin* harfi kabi, *zol, zod, izg'i* harflari *ze* harfi kabi, *itqi* harfi *te* kabi, *hoyi huttiy* harfi *hoyi havvaz* kabi talaffuz qilingan. Har holda arab yozuvi fors va turkiy tillar fonetikasi uchun mos va talabga javob beradigan darajadagi yozuv emas edi. Chunki arab yozuvi fors va turkiy tillardagi tovushlarning hammasini ifodalay olmas edi. Shuning uchun fors va turkiy tillarda mavjud bo'lgan *P, G, Ch* tovushlari va fors tilining o'zida mavjud bo'lgan *J* tovushi dastlabki paytlarda arab yozuvidagi *be, kof, jim, ze* harflari yordamida yozilavergan. Xuroson hududida arab yozuvini birinchi bo'lib kim va qayerda fors

tili ishlatilganligi noma'lum. Lekin har holda bu jarayon Xurosonning har yer-har yerida stixiyalik ravishda amalga oshgan bo'lsa kerak. Bu yozuvni qo'llashga hukmronlarning ma'muriy-xo'jalik ehtiyojlari ham sabab bo'lgan bo'lsa kerak, chunki arab yozuvi mahalliy yozuvlarga qaraganda soddaroq, ishlatishga qulayroq va tez yozish uchun mos yozuv bo'lgan.

O'ra Osiyoda arab paleografiyasining takomillashuvi bosqichlari. Arab harflari asosidagi fors va turkiy tillar yozuvining shakllanishi uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1-bosqich. Bu yozuvning shakllanishi va taraqqiyotining boshlanish bosqichi. Arab yozuvi fors va turkiy tillar uchun qo'llana boshlagan dastlabki paytda ayrim muammolar yuzaga chiqqan, chunki bir tilning harflari ikkinchi bir til uchun ishlatilganda bunday muammoning yuzaga kelishi tabiiy edi. Mas., arab tilida mavjud bo'lgan «**al-**» aniqlik artikli yoki so'z oxirida uchraydigan ta marbuta harfiga zarurat yo'q edi. Chunki bu narsalarning o'zi fors tilida ta marbuta ustidagi ikki nuqta olib tashlanib, xoyi havvazga aylantirilgan va u-e tovushini bildiradi boshlagan. Yoki arab tilida mavjud bo'lgan hamza belgisi ayrim birikmalarda izofalikni bildirish uchun ishlatila boshlagan. Arab yozuvining fors tiliga moslashtirib olish IX asrda amalga oshgan.

2-bosqich. Bu bosqich arab harflari asosidagi fors va turkiy alifboning shakllanishi va bu bilan bog'liq holda arab yozuvida sodir bo'lgan ayrim sifat o'zgarishlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda mahalliy filolog olimlar mahalliy tillarda mavjud bo'lib, arab tilida yo'q bo'lgan tovushlarni yozuvda aks ettirish uchun to'rtta harf ijod etadilar va bu harflar **pe, chim, je** harflaridir. Bu harflarning yozuvda qo'llana boshlashi X asrning boshlarida amalga oshgan. **G** tovushi uchun ham ular harflar yaratganlar. Lekin bu harflar nimagadir amalda qo'llanilmagan va XVI-XVII asrlarga kelib **G** tovushi uchun **Kof** harfining ustiga parallel chiziq tortish rasm bo'lgan. Bu chiziq forslarda «sarkash» deb aytiladi. Shunday qilib, nisbatan uncha katta bo'lgan muddat davomida 32 harfdan iborat bo'lgan va arab harflariga asoslangan fors va eski o'zbek yozuvi vujudga kelgan. Bu 32 harf 18 ta shakldan iborat, qolganlari o'zaro nuqtalarning soni bilangina farq qiladi.

3-bosqich. Bu bosqich arablarda mavjud bo'lgan yetti yozuv turini o'zlariga moslashtirish yo'li bilan yangi yozuv turlarini ijod etish bosqichidir. Agar arablarda yozuvning yetti turi mavjud bo'lgan bo'lsa, (*kufiy, muhaqqaq, rayhoni, nasx, suls, tavki, riqo*), Xuroson va Movaraunnaxr qalam sohiblari o'zlarining estetik didlari va badiiy qobiliyatlaridan kelib chiqib, XIV asr ikkinchi yarmidan boshlab, yuqoridagi yetti yozuv turini yanada rivojlantirganlar va ularning bazasida yana yangi to'rt yozuv turini ijod etganlar (*ta'lik, shikastayi ta'lik, nastalik, shikastayi nasta'lik*). Bular ichida keyinchalik eng keng tarqalgan yozuv nasta'lik yozuvidir.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – Т., 2015.
5. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
6. Кляшторный С.Г. Древне-тюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964.
7. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины: Учебник для студентов вузов. – М., 2003.
8. Тарихий манбашунослик. / Ўқув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузайлова. – Т.: Фан, 2006.
9. Тарихий манбашунослик муаммолари. / Республика илмий-амалий анжумани материаллари. -Т., 2008.
10. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.
11. Хива давлат ҳужжатлари. М.Йўлдошев таҳрири остида. – Т., 1960.
12. www.ziyounet.net
13. www.history.ru

4- mavzu: O‘zbek paleografiyasi tarixi.

Reja:

1. O‘rta Osiyoga arab paleografiyasining kirib kelishi asosida o‘zbek paleografiyasining vujudga kelishi.
2. Yozuv materiallari va yozuv qurollari tarixi.
3. Qo‘lyozmalarning bezagi va shakli.

***Maqsad:** O‘rta Osiyoga arab paleografiyasining kirib kelishi asosida o‘zbek paleografiyasining vujudga kelishi. Yozuv materiallari tarixi. Yozuv qurollari. Qo‘lyozmalarning bezagi va shakli.*

O‘rta Osiyoga arab paleografiyasining kirib kelishi asosida o‘zbek paleografiyasining vujudga kelishi. Sharq va shu jumladan O‘rta Osiyo xalqlari qo‘lyozmalarining asosiy xususiyati shuki, bu xalqlar islom dini shakllangan davrdan boshlab 14 asr davomida ilmiy va badiiy asarlarini na faqat o‘zlarining ona tillarida, balki arab va fors tillarida ham yaratganlar. Tarixda O‘rta Osiyo bilan Eron o‘rtasida, shuningdek arab mamlakatlari o‘rtasida chegara bo‘lmagan. Shuning uchun arab tilidagi qo‘lyozmalarning bir qismi O‘rta Osiyo hududida yaratilgan bo‘lsa, qolgan qismi arab mamlakatlaridan yoki Erondan olib kelingan bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday gapni fors tilida qo‘lyozmalarga nisbatan ham aytish joyiz. Shunday qilib O‘rta Osiyo hududida turkiy tillarda bitilgan qo‘lyozmalar bilan bir qatorda arab va fors tillarida bitilgan qo‘lyozmalar ham mavjuddir. Fikrimizning dalili uchun quyidagi raqamlarni fakt sifatida keltiramiz: O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutining hazinasida hozir 17 mingdan ziyod qo‘lyozma kitoblar saqlanmoqda. Shularning 10 foizdan oshiqrog‘i ya‘ni qariyb 1700 tasi turkiy tilda bitilgan qo‘lyozmalardir. Taxminan 30 foizini fors tilida bitilgan qo‘lyozmalar tashkil etadi. Bu esa 5000 dan ziyod qo‘lyozmadir. Qolgan 1 foizi esa, arab tilida yaratilgan qo‘lyozma kitoblardir. Shuning uchun O‘rta Osiyo xalqlari qo‘lyozmalarining paleografiyasi haqida gap borganda, turkiyzabon qo‘lyozmalar bilan chegaralanib qolmasdan, arab va fors tillarida yaratilgan qo‘lyozmalarni ham e‘tiborga olish kerak bo‘ladi.

Yozuv materiallari va yozuv qurollari tarixi. Qo'lyozma yaratish uchun eng kerakli yozuv quroli qalam hisoblangan. U qamishdan yasalganligi uchun qamishqalam deb atalgan. Qamishqalam yasash uchun qamishning pishgan tanasi olingan va uning bir tomoni qiya qilib kesilgan. Kesilgan tomonining uchli o'tkir qismi ishqab yanada o'tkirlangan va silliqlangan. Qamishqalam sharq xalqlari adabiyotida juda ko'p va ho'b maqtalgan. Chunki u ijoddagi barcha go'zallikning manbai hisoblangan. Qamishqalam sifati uni qamishlar ichidan tanlanishiga, qamishning yo'g'onligiga, rangiga, qaerda o'sganiga bog'liq bo'lgan. Qamishqalam yasash uchun ajratilgan qamishlarni saqlashning va qayta ishlov berishning ham o'ziga yarasha yo'li bo'lgan. O'sha qoidaga amal qilib ishlov berilgan. qamishdan chiroyli va qiynalmay yozadigan qamishqalamlar ishlangan. Qamishqalam VII-VIII asrdan XIX asrning oxirigacha asosiy yozuv quroli bo'lib xizmat qilgan.

Keyingi yozuv quroli siyoxdondangina emas, balki yozuv uchun kerak bo'ladigan qurollarning majmuasidan iborat bo'lgan. Bunga qamishqalamning o'tkirlab turish uchun kerak bo'ladigan qalamtarosh, qalamni artib turish uchun ishlatiladigan paxta, shuningdek kitob shakliga keltirish uchun xizmat qiladigan kley (sirach), bigiz, qisqich, latta, chizg'ich va boshqalar. Bularga maxsus korobka ajratilib, o'sha korobkada saqlangan.

Qo'lyozmalarning bezagi va shakli. Turkiy qo'lyozmalar juda katta geografik hududda yaratilgan va ko'chirilgan. Bular: O'rta Osiyo, G'arbiy Sibir, Ular, Volga bo'yi, Shimoliy Kavkaz, Kavkaz orti o'lkalari, Qrim, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Kashmir, Misr, Iroq, Suriya, Bolgariya, Ruminiya, Yugaslaviya o'lkalaridir. Va bu qo'lyozmalar juda ko'p turkiy tillarda, tatar, qrimtatar, bashqird, qozoq, va boshqa tillarda yaratilgan.

O'rta Osiyo qo'lyozmalari haqida gapirar ekanmiz, yana shuni ununtmasligimiz kerakki, O'rta Osiyoning chegarasi doimo o'zgarib turgan. Temuriylar davrida Xirotda ham shu rayonga tegishli bo'lsa, Boburiylar davriga kelib, Hindistonning shimoliy qismi ham regionga qarashli bo'lgan.

Arab grafikasida bitilgan turkiy, qo'lyozmalarning eng qadimiysi XI asrga mansub bo'lib, u Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asaridir. U 1069-1070 (462 xijriy) da yozilgan. Uning bizgacha yetib kelgan eng qadimiy qo'lyozmasi XIII asrda bitilgan. Undan keyingi qo'lyozma Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» asaridir. U 1073-1074 (466 xijriy) da yozilgan. Uning eng qadimgi qo'lyozmasi 1266 (664 xijriy).

Turkiy tilda eng ko'p qo'lyozma bitilgan davr XVIII-XIX asrdir. X-XIII asrlarda esa ular barmoq bilan sanarli edi. Buning sababi: turkiy qo'dyozmaning ko'pi yo'qolib ketgan yoki u davrda asosan arab va fors tillaridagina qo'lyozmalar yaratilgan.

O'rta Osiyodagi ilk qo'lyozmalar Ahmad Yassaviyning «Hikmat» laridir. (1166 yilda-562 xijriyda vafot etgan). She'riy uslubda yozilgan bu hikmatlar o'sha davrdayoq devon shakliga keltirilgan va turkiyzabon aholi o'rtasida keng tarqalgan.

Mashhur Xorazmlik faqix va filolog olim Muhammad ibn Umar Zamahshariy (1143 yilda-538 xijriyda vafot etgan). Xorazm shohi Otsizning buyurtmasi bilan «Muqaddimat-ul adab» asarini yozgan. Bu asar arabcha-turkiycha lug'at va turkiy tilning gramatikasiga bag'ishlangan. Bu asar bir necha marta ko'chirib yozilgan. Uning eng qadimgisi 1492 yilda 989 xijriy. Buxoroda ko'chirilgan. Shuningdek u Samarqand va Toshkentda ham ko'chirib yozilgan.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.

5. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
6. Кляшторный С.Г. Древне-тюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964.
7. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины: Учебник для студентов вузов. – М., 2003.
8. Тарихий манбашунослик. / Ўқув қўлланма. Тузувчилар А.А. Мадраимов, Г.С. Фузаилова. – Т.: Фан, 2006.
9. Тарихий манбашунослик муаммолари. / Республика илмий-амалий анжумани материаллари. -Т., 2008.
10. Қўчқоров Т. Палеография. – Т.: Ўзбекистон, 1988.
11. Хива давлат ҳужжатлари. М.Йўлдошев таҳрири остида. – Т., 1960.
12. www.ziyounet.net
13. www.history.ru

5- mavzu: Epigrafikaning fan sifatida vujudga kelishi va epigrafik matnlarning turlari.

Reja:

1. Epigrafikaning fan sifatida vujudga kelishi.
2. Epigrafik matnlarning mazmuniga ko'ra turlari.

Maqsad: Epigrafikaning fan sifatida vujudga kelishi. Epigrafikaning maqsadi va vazifalari. Epigrafik matnlarning mazmuniga ko'ra turlari.

Epigrafikaning fan sifatida vujudga kelishi. Epigrafika Yunoncha **epi** va **grafika** so'zlaridan olingan bo'lib, **“buyumga yozilgan”** degan ma'noni bildiradi. Epigrafika fani asosan tosh, sopol, metall, va boshqa qattiq buyumlarga bitilgan qadimgi va o'rta asr Yozuvlarini urganuvchi fandır. Uyg'onish davrida Qadimiylikka, chunonchi Qadimgi sharq va qisman qadimgi “Bibliya” ga qiziqish kuchaygan paytda paydo bo'lgan. Epigrafika fani dastlab Italiya, Yunoniston, SHimoliy Afrika va Falastindan topilgan oltin, Yunon, etrusk, qadimgi yaxudiy, finikiya puni yodgorliklarigagina ega edi. XIX asrning o'rtalaridan epigrafika ayniqsa tez rivojlana boshladi. Epigrafika fani yordami bilan Kipr orolidan topilgan miloddan avvalgi XI-VIII asrlar tosh va idishlarga bitilgan Yunon tilidagi yoo'zlar Livan, Suriya, Karfagen, O'rta er dengizi orolaridai Italiya, Frantsiya, ispaniya va SHimoliy Afrikadan topilgan finikiya puni shuningdek qadimgi Yozuvlari, miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda Fila oroli va Nil daryosidan topilgan qadimgi Misr petroglifik Yozuvlari, miloddan avvalgi VI asrdagi janubiy va shimoliy arab Yozuvlari, Tigr va Evfat daryolari oraligi va Old Osiyoning qadimgi xududlaridagi miloddan avvalgi 3 ming yillikka oid mixxat matnlari, Ahamoniylar sulolasining o'rnatilishidan Artakserks III podsholigi (mil.avv. 358-338y) gacha bo'lgan dvrdagi koyalar, saroy dvorlari, va oltin taxtachalarga bitilgan qadimgi eron mixxatlari, Slayan, Gruzin, Arman, Qadimgi Turkiy, Xitoy, osiyo shuningdek O'rta Osiyo va boshqa xududlardan topilgan ko'plab yozma yodgoorlilar (bitiklar) topib urganildi. Epigrafikaning tarakkiyoti tufayli qadimgi

xalqlarning, ibtidoiy. Ijtimoiy-siyosiy mddy madaniyati diniy mazxabi va umumiy tarixi haqida gi qimmatli ma'lumotlarni to'plash ikoni yaratildi va tuplandi.

Epigrafik matnlarning mazmuniga ko'ra turlari. Epigrafik matnlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Rasmiy bitiklar. Bularga ayrim yuridik mazmunga ega bo'lgan matnlar, davlat ahamiyatiga molik turli xil farmonlar, qarorlar, u yoki bu voqyeaga bag'ishlab yoki biror buyuk shaxs sharafiga yozilgan faxriy bitiklar, davlat arboblarning ismi shariflari va boshqalar kiradi.

2. Ibodat bilan bog'liq bilgan diniy mazmundagi bitiklar. Bunga turli xudolar sharafiga bitilgan rasmiy va qutlov matnlari, ibodatxonalar qurilishi ishlaridagi faoliyatlarni abadiylashtirish maqsadida yozilgan bitiklar, ayrim podshohlar sharafiga yoki biror shaharni qurib bitkazilishiga atab bitilgan bitiklar, ibodatga oid tavsiyalar va taqvimlar va boshqalar kiradi.

3. Shaxsiy bitiklar. Bunga ayrim shaxslar tomonidan yozib qoldirilgan qutlov bitiklari, qabrtoshlardagi bitiklar, imoratlar peshtoqidagi, idish-tovoqlarning xoshiyasidagi ayrim yozuvlar va hokazolar kiradi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
5. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
6. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
7. Кляшторный С.Г. Древне-тюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964.
8. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины: Учебник для студентов вузов. – М., 2003.

9. www.ziyonet.net
10. www.history.ru

6- mavzu: Dunyo xalqlari epigrafikasi.

1. Yer yuzida epigrafik yodgorliklarning topilishi va o'rganilishi.
2. Dunyo xalqlari epigrafikasining tavsifi.

Maqsad: *Yer yuzida epigrafik yodgorliklarning topilishi va o'rganilishi.*
Dunyo xalqlari epigrafikasining tavsifi.

Yer yuzida epigrafik yodgorliklarning topilishi va o'rganilishi.

Qadimgi Misr epigrafikasi. Misr Yozuvi asosi e'tibori bilan ideografik xat bo'lib, unda har bir tushuncha muayyan tasvir belgi hieroglif bilan ifodalanadi. "Hieroglif" Yunoncha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi "*Muqaddas belgi*".

Misr Yozuvi sistemasida uch xil belgi ajralib turadi:

1. Xis tuyg'u bilan idrok etiladigan narsalarni tasvirlovchi ideogrammalar. Bunda biror so'zni ifodalash uchun aynan shu so'zni ifodalovchi buyum yoki predmetning o'zini rasmi chiziladi.

2. Xis tuyg'u bilan idrok etiladigan harakatlar. Bunda biror harakatni belgilarda ifodalamoq uchun aynan o'sha harakat rasmi chiziladi. Masalan, "uchmok" so'zini ifodalash uchun, kushning qanot qoqib ketayotgan rasmi chiziladi, "yig'lamoq" so'zini ifodalash uchun, ko'z va ko'zdan yosh oqayotganligi tasviri tushiriladi va xokazo.

3. Mavxum tushunchalarni tasviriy yul bilan ifodalash. Masalan, "keksalik" so'zini ifodalash uchun, odamning xassaga suyangan rasmidan foydalanishgan, "topmoq" so'zini ifodalash uchun esa laylakning engashgan xolda, tumshug'ida qandaydir narsani ushlab turgan xolatidan foydalanilgan va xokazo.

Mavxum tushunchalarni ifodalash uchun fonetik belgilar ham qo'llanilgan. Eshirilishi bir-biriga o'xshash, lekin ma'nosi har xil so'zlar, ya'ni omonimlar. Shunday belgilar bilan ifodalanagan. Xa, bir-biriga o'xshash, lekin aynan bir xil bo'lmagan "xol" (yuzdagi xol) va "xol" (xol-axvoli ma'nosida) singari so'zlar bir xil belgi bilan ifodalanagan bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan "**determinativlar**" yoki "**ochqich belgilar**", garchi talaffuz etilmagan bo'lsada juda katta ahamiyatga molik deb xisoblangan. Ular

bitta belgi bilan ifodalangan omonimlarni bir-biridan farqlashga xizmat qilgan. Misr belgilarining aksariyat ko'pchiligi determinativga ega. Masalan, jins determinativi : erkak kishining ismidan keyin erkak bilan bog'liq bo'lgan ifodadan so'ng o'tirgan erkakni tasvirlovchi belgi va aksincha, ayol kishi ismidan keyin yoki aloqador ifoda oxirida ayolni tasvirlovchi belgi qo'yilgan. Mamlakatlar determinativi – kattaligi cheklangan bir parcha er, vaqt determinatvi – quyosh gardishi, ish harakatlar determinativi - biron yumush bilan bog'liq qo'l, mavxum tushunchalarniki – qo'lyozma o'rami bilan ifodalangan.

Eron va Mesopotamiya epigrafik yodgorliklari. 1761 yil Daniya qiroli uzoq Arabiston, Eron va boshqa noma'lum sharqiy mamlakatlarni o'rganish uchun ekspeditsiya uyushtiradi. Ekspeditsiya sostavida ruxoniy o'g'li, arab tilini bilgan K.Nibur ham bor edi. 1765 yil u Arabistonga jo'nab ketadi. U erdan Mesopotamiya so'ngra Eronga o'tadi va nixoyat SHerozning shimoliy sharqiy tomonida, undan 7 mil narida uning ko'p yillik orzusi ro'yobga chiqadi, u qadimgi Persepolning harobalarini topadi.

Persepol shaxri A. Makedonskiy tomonidan yondirilgan edi. 1939 yillargacha bu haroba axoli uchun tosh koni bo'lib xizmat qilgan edi. Lekin K.Nibur bu erdan o'ziga kerakli narsani topa oladi. U uch hafta mobaynida: xaykal, qabrtosh, baxaybat toshlarga bitilgan mixxatlardan nusxa ko'chiradi. Axmoniylarning mixxat Yozuvi topildi. Lekin olimlar uni o'qishga muvaffaq bo'la olmadilar. Mixxatni o'qib chiqishni G. Grotefend amalga oshiradi.

Qadimgi Xett epigrafikasi. Milodan avvalgi 1296 yili baxorida Orant daryosi vodiysida qadimgi Misr Fir'avini Ramzes II va Xett podshosi Muvatallis (Xatesuliy III) qo'shinlari o'rtasida Kadesh shahri yonida yaqinida to'qanashadilar. Bu jangda g'olib bo'lmay, ikkala tomonning kuchlari ham teng keladi va mil.av.1280 yil ikki davlat o'rtasida "Abadiy tinchlik va do'stlik to'g'risida" bitim tuziladi. Ramses II bitimning isboti sifatida Xett podshosi qiziga uylanadi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – Т., 2015.
5. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
6. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
7. Кляшторный С.Г. Древне-тюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964.
8. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины: Учебник для студентов вузов. – М., 2003.
9. www.ziyonet.net
10. www.history.ru

7- mavzu: O'rta Osiyo epigrafik yodgorliklari.

Reja:

1. O'rta Osiyoda epigrafik yodgorliklarning o'rganilishi.
2. Islomdan oldingi turkiy epigrafik yodgorliklar.
3. Islomdan keyingi turkiy epigrafik yodgorliklarning umumiy tavsifi.

Maqsad: *O'rta Osiyoda epigrafik yodgorliklarning o'rganilishi. Islomdan oldingi turkiy epigrafik yodgorliklar. Islomdan keyingi turkiy epigrafik yodgorliklarning umumiy tavsifi.*

O'rta Osiyoda epigrafik yodgorliklarning o'rganilishi.

Bir necha ming yillar davomida shakllangan turkiy Yozuvlar taqdiri Shumer mixxatlari kabi uzoq vaqtgacha jamoatchilikka ma'lum bo'lmay keldi.

XVIII asrda turkiy xalqlar Yozuvlari haqida dastlabki ma'lumotlar paydo bo'ldi. Lekin Yozuvlar qaysi xalqqa mansub ekanligi muammoligicha qolaverdi. Chunki bu Yozuvlarni xech kim o'qiy olmadi. 1691 yilda o'z davrining yirik olimi, Moskvadagi Gollandiya elchixonasi a'zolaridan biri Nikolay Vidzen Verxotur shahridan uncha uzoq bo'lmagan joyda noma'lum alifboda yozilgan bitigtoshlarni topdi. N.Vidzenning bu sohaga qiziqishiga Sibir viloyati boshlig'i Golovin sababchi bo'lgan edi. U Sibir bo'ylab sayohat qilib yurganida Ob daryosining o'pirilgan joyidan odam suyaklari saqlangan yog'och quti, kumush boldoq, idishlar topadi. Bu topilmalarni u N.Vidzenga sovg'a qiladi. Lekin bu topilmalar va Yozuvlar qaysi xalqqa tegishli ekanligi noma'lum edi. Oradan 5 yil o'tgach 1696 yilda Tobolslik boyar o'g'li Semen Remezov ham Sibir erlarining haritasini chizayotib, bir punktiga Urxun toshi deb belgi qo'yadi. Noma'lum Yozuv bitilgan bu tosh haritada chegara vazifasini o'tay boshlaydi. Bunday Yozuvlar haqida 1710 yilda asirlikka tushgan shved zobiti Filipp Ioganin Stralanberg to'liqroq ma'lumot beradi. Asirlikda u 13 yil yashab noma'lum Yozuvning jadvalini ham chizib oladi. Uningcha bu Yozuvlar run Yozuvlari deb atala boshlandi. Run deb atalishiga sabab, got Yozuviga tashqi jixatdan o'xshashligidir. Runa - sir ma'nosini bildiradi. Qadimgi olmonlarning run Yozuvi

milodiy II-III asrlarda kelib chiqqan .Turkiy Yozuvlar esa G'arbdagi run Yozuvlari paydo bo'lgunga qadar ham mavjud edi.

1716 yili Pyotr I Dantsigda professor Breynning tabiyot-tarix muzeyini borib ko'radi. SHundan so'ng olimdan bu sohada iqtidorli kishi berishni iltimos qiladi . Breyn do'sti , tibbiyot fanlari doktori Daniil Gotlib Messershmidtni tavsiya qiladi. U tarix, jug'rofiya, botanika soxasida ham bilimdon edi. Oradan ko'p o'tmay D.Messershmidt Peterburgga chaqirildi. Unga Sibirning fizik tasvirini yaratish topshirildi. U etti yil tinimsiz ishladi.

. Islomdan oldingi turkiy epigrafik yodgorliklar.

Qadimgi Turkiy Yozuvi 38 harfdan iborat bo'lib, 4 harf unli, qolgan 34 harf unsizdir. Yana ba`zan a – e, o – u, u – yu harflari uchun bir harf qo'llanilgan. Bu qadimgi Yozuv o'ngdan chapga qarab yozilgan va so'zlar orasiga ikki nuqta (:) qo'yilgan.

Demak, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, qadimgi turk Yozuvi mil.avv. V asrda paydo bo'lgan va asosan oromiy Yozuvi asosida shakllangandir.

Tunyuquq bitigtoshi 2-turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslaxatchisi va sarkardasi Tunyuquqqa bag'ishlanib, 712 – 716 yillari o'yib yozilgan. Tunyuquq bu bitigni o'zi xayotligida yozdirgan. Bitigtosh Ulan – Batordan 66 km. janubiy sharqidagi Bain TSokto degan joydan topilgan. Bitigtoshni *Elizaveta Klements* 1897 yili shimoliy Mo'g'iliston safariga borganda topgan.

Kultegin bitigtoshi Bilga xoqon bitigtoshi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Radlov bu bitigni nemis tiliga tarjima qilgan. Bu bitigtosh marmarga o'yilgan, qalinligi 41 sm, balandligi 3 metr 15 sm, tub qismining kalinligi 1 m. 24.sm. Marmar tosh o'rtasida bosh burchakli qalqon bor. Unga balandligi 64 sm, kengligi 40 sm. bo'lgan lavxa o'yilgan. Lavxada arxar surati naqshlangan. U xoqonlik tamg'asi xisoblangan. Orqa tomonga bitigtoshning o'rnatilish tarixi, xattot Yozuvida bitilgan. Uning old tomoniga 40 satr, o'ng va chap tomoniga 13 satrdan Yozuv bitilgan. Ba'zi joylarida Yozuv o'chib ketgan. Bu marmartoshga yozish ishini Yullig Tegin ismli kishi bajargan.

Bilqa xoqon bitiqi – Bilga xoqon 734 yil 25 noyabrda o'z yaqinlari tomonidan o'ldiriladi. Uning o'g'li Ichan xoqon 735 yili otasining xotirasi uchun Kultegin bitigidan 1 km uzoqlikda bitiladi. Bu Yozuvni ham Bilga xoqonning amakisi Yullig Tegin yozgandir. Bitigtosh ag'darilib 3 bo'lakka bo'lingan, shuning uchun ham Yozuvlarning ma'nosi unchalik tushunarli emas. Bitigtosh Bilga xoqonning taxtga o'tirishidan boshlanadi. Bitigtoshda Bilga xoqonning xoqonlik yillari, davlatni adolatli boshqarganligi aytiladi. Bitigtoshning so'nggi misralarida Bilga xoqonning o'z xalqiga qilgan nasixatlari aks etgan: *“xalq xoqonidan, ersuvidan (ya'ni vatanidan) ayrilmasa, ezgulik ko'radi, baxtli, betashvish yashaydi”*.

Islomdan keyingi turkiy epigrafik yodgorliklarning umumiy tavsifi.

O'rta Osiyoga arablar kirib kelganidan va islom dini bu hududda tarqala boshlaganidan keyin o'sha davrgacha amalda qo'llanib kelingan qadimgi turkiy yozuvlar siqib chiqarilgan va bu yerda arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvi qolgan. Davlat muassasalaridagi barcha yozishmalar, shuningdek odamlar o'rtasidagi yozma munosabatlar arab alifbosiga ko'chirilgan edi. Shuning uchun 8-9 asrlardan boshlab bu hududdagi epigrafik yodgorliklar ham mana shu yozuvda bajarila boshlagan. Lekin bu yodgorliklardagi bitiklarning yozuvi arabiy bo'lgani bilan, tili asosan turkiy, ba'zan forsiy, goho esa arabcha edi.

Arabiy yozuvda bitilgan epigrafik bitiklarni o'rniga qarab diniy pand-nasihat mazmunidagi bitiklarga va xotira (esdalik uchun yozilgan) bitiklarga ajratish mumkin. Esdalik uchun yozilgan bitiklarga imoratlarning ustki qismidagi yozuvlar ham kiradi. Bu bitiklarda asosan imoratning qurib bitkazilgan sanasi, uni qurish tashabbusi bilan chiqqan kishilarning yoki shu binoni qurgan usta-me'morning nomi hamda shu binoni qurish bilan bog'liq bilgan voqyea-hodisalar bayon etilgan. Bundan tashqarii O'rta Osiyo hududida juda ko'p epitafiyalar-maqbaralar yoki qabrlarning ustiga bitilgan yozuvlar ham borki, ularni o'rganish tarix fani uchun juda katta va muhim materiallar beradi.

Epigrafik yodgorliklar O'rta Osiyoning barcha shahar va qishloqlarida topiladi. Lekin ularning ko'pligi va xilma-xilligi jihatidan oldingi o'rinlarni Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz (Kesh), Termiz, Toshkent (Shosh) kabi

shaharlar egallaydi. Bundan tashqari juda ko‘plab epigrafik yodgorliklar Axbi, Chust, Koson, Pop, Dalvarzintepa, Ko‘hna Urganch kabi hozirda shahar sifatida o‘z qiymatini pasaytirgan yoki turli tarixiy sababalrga ko‘ra, xarobaga aylangan aholi punktlaridan ham topilgan.

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta‘lim, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o‘quv qollanma). – Т., 2015.
5. Драчук В.С. Рассказывает геральдика. – М., 1974.
6. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
7. Кляшторный С.Г. Древне-тюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964.
8. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины: Учебник для студентов вузов. – М., 2003.
9. www.ziyounet.net
10. www.history.ru

8- mavzu: Qadimgi davr me'morchiligi.

Reja:

1. Ibtidoiy davr me'morchiligi.
2. Qadimgi Misr arxitekturası.
3. Qadimgi Yunon arxitekturası.

***Maqsad:** Talabalarga ibtidoiy davr me'morchiligi, quldorlik davlatlarining me'morchiligi to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish va bu boradagi ma'lumot berish.*

Ibtidoiy davr me'morchiligi. Qurilish faoliyatining boshlanishi paleolit zamonasiga borib taqaladi. U davr insonlarning tashqi muhit noqulayliklari va yovvoyi hayvonlarning ta'sirlaridan o'zlarini muhofaza qilish uchun oddiy tosh qurollari yordamida dastlabki turar-joylarni tiklashlari bilan bog'liqdir. Yog'och mavjud bo'lgan hududlarda, odatda, shox-shabbalar bilan yopilgan yerto'lalar, ikki qiyali yoki konussimon shakldagi yopmalardan iborat alohida turuvchi chaylalar qurilgan.

Me'morchilik faoliyati so'nggi paleolit zamonasida boshlangan deyiladi. Bu davrda qurilish texnikasi oddiy utilitar masalani yechuvchi texnik faoliyatdan insonlarning oddiy ma'naviy ehtiyojlarini qoniqtiruvchi murakkab tartibdagi masalalarni yechuvchi faoliyatga o'ta boshlaganligi bilan xarakterlangan.

Oddiy konstruktiv elementlar va tizimlarni estetik fikrlash tektonika bilan bog'liq bo'lgan. Keyinroq aniq g'oyaviy-badiiy mazmunni rivojlanishi badiiy texnik qurilish davrini, ya'ni arxitektura davri boshlanganligini bildiradi. Bu davr bilan inson faoliyatining yangi qirrası - badiiy san'atni paydo bo'lish jarayoni ham bog'liqdir.

Qadimgi Misr arxitekturası. Nil vodiysining shimoliy va janubiy rayonlarini qamrab olgan yagona V zg davlati eramizdan avvalgi III minginchi yularda tashkil topgan.

Misr davlati me'morchiligi tarixi quyidagi to'rt davrga bo'lingan: erta podsholik (eramizdan oldingi III minginchi yillikning boshlanisl.); qadimgi podsholik (eramizdan oldingi 2800 - 2400 yillar); o'rta podsholik (eramizdan

oldingi III minginchi yillikning oxiri - eramizdan olding, XVII asrlar); yangi podsholik (eramizdan oldingi XVI -XI asrlar).

Qadimgi Misr morumental qu shlari ichida, xususan maq- baralar, ya'ni piramidalar(qurilishlari. engyuqori cho'qqiga chiqqan payti qadimgi podshohi.k davriga to'g'ri keladi) va ibodatxonalar komplekslari (rive la: si yang podshol s davriga to'g'ri keladi) ajralib turadi.

Quriish usullar va konstruksivalari. Misrda quriish texnikasiniig rivojlanishi uchun muhim faktor bo'lib doimiy irrigatsiya inshootlariga bo'lgan zaruriyatii.ng mavjudlig xizmat qilgan. Gidrotexnik komplekslar tarkibiba suv omborlari, to'g'onlar, suv o'tkazgichlar, suvn ko'taiish uchun xizmat qiladigan quauqlar va boshqa injenerlik inshootlan k: gan.

Ommaviy qurilishda asosiy material sifatida xom g'isht (o'lchamlari 14 x 36 x 1 Ism), monumental binolar vayodgorliklarda esa tog' j; islari (granit, ohaktosh, bazalt, qumtosh va boshqalar) uhlatilgan. Tarkibi ohak, qum va loydan tashl I topgan qorkhmalar yordamida toshlar terilgan. Yog'och kam bo'lganligi uchun u kam va zaruriy hollardag na (yopmada, tomda, ba'zi tayanchlarda) : ;hlatilgan. Gumbaz konstruksiyalar ham deyarl shlatilmagan. Tosh konstruksiyalar binolar va inshootlarning asosiy elementl? bo'lib xizmat qilgan. Devor va ustun - to'sin sistemasi yodgorliklarning asosiy konstruktiv tizin hisoblangari

Qadimgi Yunon arxitekturası. Antik dunyo deb, eramizdan avvalgi XII - VIII asrlaraan boshlab eramizning IV — V asrlarigacha bo'lgan vaqtни o'z ichiga olgan Yunon (Gretsiya) va Rim sivilizatsiyasi davriga aytiladi.

Antik Yunon arxitekturası, asosan eramizdan oldingi VIII - I asrlarda rivojlanib, uchta davrga bo'lib o'rganiladi. Bular: arxaik, klassik va el nistiK davrlardir. Arxaik davri eramizdan oldingi VIII-V asrlarning boshlariga to'g'ri kelib, diniy va boshqa jamoat binolai turlarining shakllanishi bilan xarakterlidir. Ikkinchi davr o'z ichiga eramizdan oldingi 480 — 400 - yillardan boshlab IV asrning oxirlarini olib, arxitekturaning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Uchinchi davr eramizdan oldigi 320 - yillardan boshlab eramizning I asrigacha davom etib,

Yunon - Sharq davlatlarining yuzaga kelishi va ellinistik madaniyatning Kichik Osiyo va Misr mamlakatlariga tarqalishi bilan xarakterlidir.

Ouriliy usullari va konstruksivalari. Yunonlar fanning ko'pgi- na muhim tarmoqlariga (geometriya, mexanika va statika) asos solganlar. Bu esa muxandislik fanlarining rivojlanishiga olib kelgan. Muxandislik fanlarining yutuqlari esa delfi orqali inshootlari shaharlar, ko'priklar, to'g'onlar va boshqa inshootlarda tatbiqlanib borgan.

Asosiy qurilish materiallari bo'lib xom g'isht, pishgan g'isht, yog'och va monumental binolar qurilishida esa tabiiy tosh, ohaktoshlar xizmat qilgan. Ohaktoshlar juda ham yuqori darajada saqlanib, qorishmasiz, devor va ustunlar qilib terilgan. Ba'zi hollarda konstruksiyani, bardoshligini oshirish uchun bu tosh bloklari bir - biriga biriktirilgan.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Vaxitov M.M., Mirzayev SH.R. Me'morchilik. 1 qism. Me'morchilik tarixi. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2010.
5. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
6. Засипкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М., 1948.
7. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
8. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
9. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. – Buxoro, 2009.
10. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. – Buxoro, 2009.
11. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. – Buxoro, 2009.
12. www.ziyounet.net
13. www.history.ru

9- mavzu: O'rta asrlar davri me'morchiligi.

Reja:

1. Sharqiy Yevropa mamlakatlari arxitekturası
2. Vizantiya arxitekturası.
3. Roman va gotika arxitekturası.

Maqsad: *Sharqiy Yevropa mamlakatlari va Vizantiya arxitekturası. Roman va gotika arxitekturası to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish va bu boradagi ma'lumot berish.*

Sharqiy Yevropa mamlakatlari arxitekturası. IV asrning oxirlarida Rim imperiyasi yemirilgandan so'ng, imperator Konstanin tomonidan poytaxt Yunon Vizantiyasiga, ya'ni Konstantinopolga ko'chirilgan. Vizantiya arxitekturası uch davrga bo'linadi: erta Vizantiya (V - VII asrlar); o'rta Vizantiya (VIII - XIII asrlar); kech Vizantiya (XIII - XV asrlar) arxitekturası. Vizantiya arxitekturasining gullagan payti birinchi davrga to'g'ri keladi. Antik dunyo arxitekturası an'alarini davom ettirishib, shu bilan birga, u o'zida Sharq mamlakatlari xalqlarining arxitektura yutuqlarini mujassamlashtirgan.

Qurilish usullari va konstruksiyalari. Vizantiya arxitekturası Rimdan arka - gumbazsimon konstruksiyalarni me'ros qilib olsada ammo beton texnikasidan voz kechib, konstruksiyalar asosan g'isht va tabiiy toshlardan bajarilgan. Tomlar, asosan gumbazsimon konstruksiyalardan qilingan. Eng ko'zga ko'ringan konstruktisiya yutuqlardan biri, bu to'rt ustunga tayanadigan, parus shaklidagi gumbazni yaratilishi bo'lgan.

Asosiy qurilish materiallari bo'lib, yassi g'isht - plinf xizmat qilgan. Uning o'lchamlari 35,5x35,5x 5,1 sm bo'lgan. Tabiiy toshlarga boy bo'lgan Sharqiy rayonlarda esa, devor terishda yo'nilgan toshlardan foydalanilgan. Qorishmaga ohak ishlatilgan bo'lib, unga maydalangan g'isht qo'shilgan. Gumbazsimon konstruksiyalarni yengillashtirish maqsadida g'ovakli tabiiy toshlar pemsalardan foydalanilgan. Tomlar cherepitsalar yoki qo'rg'oshin tunikalar yordamida qoplangan.

Vizantiya arxitekturasida yutuqlarining eng cho'qqisi deb Yunon arxitektorlari - Anfim va Isidor tomonidan 532-537-yillarda Konstantinopolda qurilgan Sofiya soborini tan olishadi. Sofiya sobori Vizantiya imperiyasining asosiy bo'lim bo'lib, rejadagi o'lchamlari 74,8x69,7 m ga teng gumbazdir. Gumbazning diametri 31 m, balandligi 23 m ni tashkil etgan, u 4 ta pilonga tayangan.

3. Roman va gotika arxitekturasida.

Roman me'morchiligi rivojlanishining asosiy yakuni bo'lib, devorlarni devor va ustunlarga (kontrofoslarga) ajratishdir. Bu konstruktiv sxema Gotik sistemaning rivojlanishiga asos solgan. Binolari va arxitektura komplekslari. Roman arxitekturasida snakllari xilma-ximgi bilan ajralib turadi. Unda g'arbiy Yevropaning turli hududlarida yuzaga kelgan juda ko'p Roman arxitekturasida deb, odatda, XI - XIII asrlardagi g'arbiy Yevropa arxitekturasida ga aytiladi, chunki u Rim arxitekturasining ba'zi ko'rinishlari va qurilish usullarini me'ros qilib olgan hamda Roman xalqlari yashaydigan hududlarda keng tarqalgan bo'lgan. Rim imperiyasi yemi lganidan keyin, g'arbiy Yevropa hududida arxitektura turg'unlikka uchragan (V - X asrlar). XI asrdan boshlab arxitektura yana rivojlana borib, bu rivojlanish feodallar uylari vaqal'alarida o z aksini topgan.

Qurilish usullari va tektonika. Erta feodal davrlarida qurilgan Roman arxitekturasida binolarning tomlari yog'ochdan bo'lganligi sababli ular yong'inlar natijasida tez-tez yonib, buzilib ketgan. Shuning uchun Roman arxitekturasining asosiy vazifalaridan biri, bu qurilishda yog'och konstruksiyalarini tosh materiallar yordamida gumbazsimon konstruksiyalarga almashtirish bo'lgan. Roman me'morchiligi rivojlanishining asosiy yakuni bo'lib, devorlarni devor va ustunlarga (kontrofoslarga) ajratishdir. Bu konstruktiv sxema Gotik sistemaning rivojlanishiga asos solgan.

Roman arxitekturasi snakllari xilma-ximgi bilan ajralib turadi. Unda g'arbiy Yevropaning turli hududlarida yuzaga kelgan juda ko'p yo'nalishlar mavjud.

XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asrlarda shaharlarda savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishi g'arbiy Yevropa arxitekturasining eng yuqori cho'qqilarga chiqishiga olib kelgan. Qurilish ishlari monastrlarning qaramog'idan ketib, haqiqiy quruvchi professionlarning ixtiyoriga o'tgan. Bu davrlarda quruvchilar konstruksiyalarni yengillashtiruvchi va qurilish materiallarini iqtisod qiluvchi yangi qurilish usullarini qidira boshlaganlar. O'tgan davrdagidek, Gotika arxitekturasining rivojlanishida Fransiya arxitekturasi maktablari yana yetakchi o'rinlarda qolgan. Qurilish usullari va konstruksiyalar Bu davrning eng katta texnik yutuqlaridan biri bo'lib gotika ibodatxonalarining konstruksiyalaridir. Gotika arxitekturasi ustalari Roman arxitekturasi yutuqlarini rivojlantirib, sifat jihatidan yangi kark assistemasini yaratganlar. Bu sistema binolarining devorlari va umuman o'zini ancha yengil bo'lishiga olib kelgan.

Gotika karkasining asosiy elementlari bu gumbazning arka qovurg'alari — nervyuralar, gumbazning vertikal tayanchlari (tashqariga chiqarilgan) kontrofoslar va qiya elementlar – ark butanlaradir.

Gotika arxitekturasining eng ko'zga ko'ringan. Parij xudo onasi sobori bo'lib, buning qurilishi 1163-yilda boshlanib XIV asrning o'rtalarida tugallangan Hashamatli besh nefli soborning uzunligi 129m, nefning balandligi 32,5 m, minoralarning balandligi esa 69 m ni tashkil etadi.

Gotika uslubi XIII asrga kelib o'zining eng rivojlangan davriga o'tgan. Bunga misol qilib Reyms soborini ko'rsatish mumkin.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Vaxitov M.M., Mirzayev SH.R. Me'morchilik. 1 qism. Me'morchilik tarixi. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2010.
5. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
6. Засипкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М., 1948.
7. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
8. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
9. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. – Buxoro, 2009.
10. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. – Buxoro, 2009.
11. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. – Buxoro, 2009.
12. www.ziyonet.net
13. www.history.ru

10- mavzu: Yangi tarix davri me'morchiligi.

Reja:

1. XV–XVI asrlar Italiyada uyg'onish davri me'morchiligi.
2. Barokko me'morchiligi.
3. Rus me'morchiligi.

Maqsad: *XV–XVI asrlar Italiyada uyg'onish davri me'morchiligi. Barokko me'morchiligi. Rus me'morchiligi to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish va bu boradagi ma'lumot berish.*

XV–XVI asrlar Italiyada uyg'onish davri me'morchiligi. Tug'ilib kelayotgan burjuaziyaning o'rta asr feodalizmi din, axloq-odobining shakli va huquqga nisbatan kurashi keng progressiv harakat-gumanizm yo'nalishiga asos soldi. Gumanistlar o'z ijodlarida ko'pincha, antik dunyo madaniyatiga tayanganlar. Shuning uchun XV - XVI asrlarda Italiyadagi madaniy yo'nalish Renessans yoki uyg'onish davri deb atalgan. Gumanistik dunyoqarash shaxsni rivojlanishiga asos bo'lgan. Bu davrlarda bir qator ajoyib arxitektorlar, haykaltaroshlar va rassomlar dunyoga kelgan. Bunga misol qilib Brunelleski, Leonardo da Vinchi, Bramante, Rafael, Mikelandjelo, Palladio va boshqalarni nomlarini keltirish mumkin. Bu davrning nazariy me'rosi qilib anchagina me'morchilik asarlarini ko'rsatish mumkin. Leon Bat sti Mbertining "Me'morchilik haqida o'n kitob", Andrea Palladioning "Arxitektura haqida to'rt kitob", Jakomo Baroststi da Vinolining "Arxitekturaning beshta order qoidalari", Leonardo da Vinchining asarlari va boshqalar shular jumlasidandir.

____Uyg'onish davrida binolarining qurilish texnikasi Gotika davridan farq qilgan. Bu davrda antik Rim arxitekturasini davom ettirilgan. Gotika usuliga mansub bo'lgan strelkasimon gumbazlar o'rnini yana yarim sirkulli gumbazlar egallagan.

Uyg'onish davri arxitekturasini Italiyada uchta asosiy davrga bo'lingan: erta, baland va kechki. Erta uyg'onish davrining markazi Florensiya bo'lgan.

Filippo Brunelleschi (1377-1446-yillar) uyg'onish davrining birinchi eng buyuk arxitektorlaridan bo'lgan. Uning eng ko'zga ko'ringan va shu davr

arxitekturasi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan binolari Florensiyadagi tarbiya uyi (1419-1444-yillar) va Paststi kopellasidir. Leon Battisti Alberti (1404-1472) Florensiyada 1446-1451 yillarda Ruchelayi palaststosini yaratgan.

Baland uyg'onish davri arxitektorlariga Donato Andjelo Bramante (1444-1514), Mikelandjelo Buonarroto (1475 - 1564) va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu arxitektorlarning qurdirgan binolar nihoyatda mashhurdir. Bu me'morchilik uyg'onish davriga, aniqrog'i Mikelanajelo ijodiga borib taqaladi. Shuning uchun ham Mikelandjeloni "Barokkoning otasi" deb atashadi.

Barokko me'morchiligi. Barokko usulida formalarning kengligi, ma'lum simmetrik bo'laklarga bo'linish o'rniga plastik monolitlik, dinamik harakatchan massalar keldi. Order shaklni asosiy bo'laklarga bo'luvchi bo'lib qolsada, uning konstruktiv xossasi butunlay yo'qolgan.

Barokko usuliga mansub bo'lgan birinchi asarlar qatorida arxitektor Jakomo de lya Porta loyihasi bilan qurilgan II-Jezu darvishlar orderining bosh cherkovi binosini keltirish mumkin. Barokko usulining eng ko'zga ko'ringan ustalaridan biri bu Lorensto Bernini. Uning eng katta arxitektura asarlaridan biri bu avliyo Pyotr soborining tantanavor darvozaxonasi bo'lgan. Fasadda peshtoq alohida buyuk qilib ajratilgan. U arxitektorning yirik ishlaridan biri Pyotr sobori oldida kolonnalar inshootidir

Yangi klassisizm usuli XVII asrda kapitalistik rivojlanishi kuchga kirib borayotgan yangi milliy davlatlar uchun xarakterlidir (Gollandiya, Angliya, Fransiya). Tarafdorlari uyg'un jamoat tuzumini antik dunyoda ko'rardilar, shuning uchun o'zlarining jamoa - etik va estetik ideallarini tasvirlash uchun antik klassika misollariga murojaat qilganlar. Bu uslubga mansub bo'lgan birincni arxitekiura asarlaridan ingliz arxitektori Inigo Jons (1573-1652-yillar) tomonidan qurilgan Jons (1573-1652-yillar) tomonidan qurilgan Grinvichdagi Kuins - Xaus (malika uyi) binosidir.

Klassisizm arxitekturasining rivojlanishiga juda ko'p arxitektorlar o'z hissasini qo'shgan. Bularga misol qilib Kristofer Renani, Fransua Mansarni, Klod Perroni, Andre Lenotrui, Gabrielni, J.Sufloni va boshqa ko'pgina arxitektoriarni keltirish

mumkin. Bu arxitektorlar loyihasi asosida qurilgan binolar klassisizm usuliga yorqin misol bo'lib, o'z davrining eng qimmatli arxitektura yodgorliklari hisoblanadi va ular hozirgi kungacha saqlanib kelinmoqda.

Rus me'morchiligi. Rus me'morchiligi 2 davrga bo'lib o'rganiladi, bular XIV asrdan XVII asrgacha va XVII asrdan XIX asrgacha bo'lgan arxitektura davrlardir.

X asrga kelib Sharqiy Yevropa hududida Rus davlati vujudga kelgan. Bu davrda suv yo'llari bo'ylarida juda ko'p shaharlar, mustahkamlangan istehkom va qal'alar quriladi. X asr oxiri XI asr boshlarida Kiyev Rus davlati rivojlanishining yuqori cho'qqilarida edi. 1036-1052-yillarda Rus shaharlarida juda ko'p ibodatxonalar quriladi. Bularga misol qilib, Kiyevdagi Sofiya soborini va boshqa bir qancha arxitektura yodgorliklarini keltirish mumkin.

Markazlashgan Kiyev rus davlatidan keyin, feodal tarqoqlik yuzaga kelib, arxitekturaning rivojlanish markazlari alohida feodal knyazlik markazlariga ko'chadi, XII-XIII asrning boshlarida uchta mintaqada arxitekturaning rivojlanishi kuzatiladi. Bular shimoli-g'arbiy (Novgorod va Pskov), janubi - g'arbiy (Dneper bo'ylari, Ryazan va Galitso - Volin yerlari) va shimoli - sharqiy (Vladimir- Suzdal Knyazligi).

___ Rus davlatlariga Vizantiya imperiyasidan xristian dini bilan birga ularning qurilish usullari va konstruktiv sistemalari ham kirib keladi. Ibodatxonalarning konstruktiv tiplari xoch - gumbaz sistemasi asosida rivojlanadi. Devorlarni terishda g'isht, tabiiy tosh va ohakli qorishma ishlatiladi. Poydevorlar 90-120 sm chuqurlikda bo'lib, asosan qum-tosh va ohaktoshlardan bajariladi.

Moskva davlati arxitekturasi (XIV-XVII asrlar). Bu davrlarga kelib, toshdan qurilgan binolar qatorida yog'och arxitekturas ham rivojlanib, o'zining yuksalish cho'qqisiga chiqadi. Ko'rib chiqilayotgan zamon me'morchiligi asosan uch davrga bo'lingan.

XVIII asrning boshlari va XIX asrda Rossiyada kechki feodalizm davrida kapitalistik shakllanishlar yuzaga keladi. Bu davrda ijtimoiy va g'ovaviy rivojlanish o'zining yangi shakllariga kira boshlaydi, cherkovning roli nihoyatda

sustlashib, davlat idoralarining ta'siri kuchaya boradi. Fan, madaniyat, texnika, arxitektura va boshqa sohalar rivojlanib o'zining yangi bosqichiga chiqadi. Jamoat arxitekturasi rivojlanadi.

Rossiya arxitekturasining bu davri ikkiga bo'linib o'rganiladi: birinchisi - XVIII asrning o'rtalari - rus barokkosining yuzaga kelishi va rivojlanishi; ikkinchisi - XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlari - klassisizm arxitekturasining rivojlanishi.

Asosiy qurilish materiallari bo'lib yog'och va g'isht xizmat qilgan. Yog'ochdan samoviy konstruksiyalar ishlab chiqilgan. XIX asrning boshlarida metall konstruksiyalar ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Vaxitov M.M., Mirzayev SH.R. Me'morchilik. 1 qism. Me'morchilik tarixi. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2010.
5. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
6. Засипкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М., 1948.
7. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
8. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
9. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. – Buxoro, 2009.
10. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. – Buxoro, 2009.
11. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. – Buxoro, 2009.
12. www.ziynet.net
13. www.history.ru

11- mavzu: O'rta Osiyo me'morchiligining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi.

Reja:

1. O'rta Osiyoda qadimgi davrda me'morchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi.
2. O'rta Osiyoda o'rta asrlarda me'morchilikning rivojlanishi tarixi.

***Maqsad:** O'rta Osiyoda qadimgi va o'rta asrlarda me'morchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish va bu boradagi ma'lumot berish.*

O'rta Osiyoda qadimgi davrda me'morchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi. O'zbekiston Respublikasi hududida me'morchilik va binokorlik qadim zamonlardan — miloddan avvalgi III minginchi ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, X minginchi yillardan boshlangan.

Juda ko'p arxeolog qazilmalar bu yurtida otashparastlar va budda dinlariga mansub bo'lgan ibodatxonalar qurilganligidan dalolat beradi. O'sha davrlarda qal'alar qurilishi ham keng rivojlangan. Qal'alar balandlik joylarida qurilib, tashqi yovlardan mudofaa vazifasini o'tagan. Hozirgi kunda ham 400 ga yaqin qal'alarning qoldiqlari O'zbekiston hududida mavjuddir.

Mamlakatimiz hududida topilgan eng qadimiy san'at yodgorliklari (Zarautsoy sur'atlari) mezolit davriga mansubdir. Kaltaminor madaniyati namunalari neolit davrining san'ati haqida tasavvur beradi. So'x (Farg'ona) vodiysidan topilgan ikki ilonning boshi bir-biriga qaratib, bilaguzuksimon qilib ishlangan yirik tosh haykal miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlari — miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida yaratilgan. O'sha davrlarda sodda chizma (uchburchak, archasimon, yo'l-yo'l) bilan bezatib sopol idishlar tayorlangan. Turar-joylar tosh davrida g'orlardan (Teshiktosh g'ori) hamda daraxt shoxlari va poxoldan ishlangan konussimon chaylalardan iborat bo'lgan.

Aholining bir qismi ko'chmanchilikdan o'troqlikka o'tgach, tosh, guvala, paxsa, sinchli uylar qurila boshlangan. Bronza davrida O'zbekiston hududining janubida (Sopollitepa) murakkab arxitektura komplekslari vujudga kelgan. Bronza, kumushdan nafis zargarlik buyumlari, idishlar tayyorlangan, sopol idishlar bo'yalib geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Buxoro vohasida Qizilqirdan (miloddan avvalgi II ming yillik) va Farg'ona vodiysidagi Chustdan topilgan sopol buyumlar (shakl jihatdan turli-tuman: qozon, xurmacha, xum piyola, qadah, krujka va boshqalar) kulollik charxining yordamisiz qo'lda tayyorlangan. Ilk temir davrida to'g'ri to'rtburchak (Qiziltepa, Bandixontepa), aylana (Kuchuktepa; milodan avvalgi III asrda bunyod etilgan Qo'yqirilgan qal'a ham aylana tarzda) qal'a-shaharchalar qurilgan. Afrosiyobdan topilgan arxitektura inshootlarining haroba va qoldiqlari, ulardagi san'at asarlari Axmoniyilar (Eron) san'atiga yaqindir.

O'rta Osiyoda o'rta asrlarda me'morchilikning rivojlanishi tarixi. VIII-IX asrlarda, ayniqsa, Buxoro me'morchiligida badiiy uslub rivoj topgan. XII - XIII asrlarda yirik shaharlarda shisha ishlash rivojlangan, sopolga sir berish usuli ixtiro qilingan. Afrosiyob sopol idishlarida naqsh, gul va baliq, qush kabi jonivorlarning tasvirlari ishlangan, ular har xil ranglarda sirlangan. Binokorlikda an'anaviy ganch, yog'och o'ymakorligi bilan bir qatorda g'isht qalab naqsh hosil qilish san'ati ham rivojlangan. XII asrda me'morchilikda o'yama terrakotadan, sirli g'ishtdan foydalanilgan, monumental binolarning devor, gumbazlari koshin bilan qoplanib bezatilgan, bino intererlari ganch o'ymakorligi, bo'yama naqshlar bilan ham jozibadorlashtirilgan, (masalan, Termizshohlar saroyi ana shunday ishlangan).

VIII-X asrlardan girih san'ati yuksalgan, arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarilgan. X asrdan kufiy, XI - XII asrlardan nasx yozuvi me'morchilikda ko'p ishlatila boshlagan. IX-XI asrlarda Termizda Qirqqiz saroyi, Navoiyda Mirsaid Bahrom maqbarasi, Sulton Saodat

ansambli, Malik karvon saroyining saqlangan qismlari me'morchilikning yuksak darajaga ko'tarilganini, inshootlar badiiy hunarmandlar tomonidan jozibador bezatilganligini ko'rsatadi. Ilk o'rta asrlarda saroylar shahar qal'asidan tashqarida qurilgan bo'lsa, X asrdan boshlab saroylar shahar tarkibida barpo etilgan. Masalan, Buxoroda qal'a oldida, Urganchda shaharning bosh maydonida, Samarqandda registon maydonida). Saroy me'morchiligida yog'och konstruksiyalardan ko'p foydalanilgan. XI-XII asrlarda Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz va boshqa yirik shaharlar hunarmandchilik markazlari sifatida shuhrat qozongan.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Vaxitov M.M., Mirzayev SH.R. Me'morchilik. 1 qism. Me'morchilik tarixi. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2010.
5. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
6. Засипкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М., 1948.
7. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
8. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
9. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. – Buxoro, 2009.
10. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. – Buxoro, 2009.
11. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. – Buxoro, 2009.
12. www.ziynet.net
13. www.history.ru

12- mavzu: Samarqand shahri me'morchiligi tarixi.

Reja:

1. Afrosiyob yodgorliklari.
2. Shohi Zinda arxitekturaviy ansambli.
3. Bibixonim masjidining arxitekturası.
4. Amir Temur maqbarasi me'moriy yodgorligi.
5. Registon maydonining me'moriy ansambli.
6. Ulug'bek rasadxonasi.
7. Ishratxona arxitekturaviy yodgorligi.
8. XVIII–XIX asrlar arxitekturası

Maqsad: Afrosiyob yodgorliklari. Shohi Zinda arxitekturaviy ansambli. Bibixonim masjidining arxitekturası. Amir Temur maqbarasi me'moriy yodgorligi. Registon maydonining me'moriy ansambli. Ulug'bek rasadxonasi. Ishratxona arxitekturaviy yodgorligi. XVIII–XIX asrlar arxitekturası to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish va bu boradagi ma'lumot berish.

Afrosiyob yodgorliklari. Afrosiyob shaharchasi miloddan avvalgi V-VII asrlarda shakllangan deb aytiladi. O'sha davr me'morchiligi va binokorligi aholini suv bilan ta'minlash, uzunligi 5,5 km ni tashkil qilgan qal'a devorlarini barpo etish singari o'sha davr uchun murakkab hisoblangan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan. Miloddan avvalgi VI va milodiy XIII asrlarda topilgan qazilmalar Samarqand shahri to'g'risida to'la moddiy ma'lumotlar beradi.

So'g'd davlatining qadimiy shaharlari safidan o'rin olgan Samarqand dastlab Turon podshosining epik qahramoni Afrosiyob nomini olgan o'sha davrda uning maydoni 228,9 ga teng bo'lgan.

Shaharning shakllanishini birinchi bosqichi topilgan shahar devorlari bo'lgan ko'rgazma qilinadi. Eramizdan avvalgi V-VII asrlardayoq tiklangan, 80 m uzunlikdagi qoldiqlari topilib tozalangan, balandligi 13 m ni tashkil etgan devor monumental g'ishtdan barpo etilgan. Shahar arki atrofida turar-joy kvartallari, ibodatxonalar, suv

havzalari va bozor maydonlari murakkab tartibda o'tkazilgan ko'cha va yo'laklar, kanallar bilan chirmashib ketgan.

Hozirgi davrda Afrosiyobning VII-XVIII asrlarda qurilgan kvartali to'laroq o'rganilgan. Samarqandlik iqtidorli rassomlar tomonidan yaratilgan jahonga ma'lum bo'lgan devoriy tasvirlar topilgan.

Shohi Zinda arxitekturaviy ansambli. Afrosiyobning janubiy yonbag'rida, Qussam ibn Abbos mozori yonida ajoyib maqbaralar kompleksi - Shohi Zinda barpo etilgan.

Amir Temur tomonidan mo'g'ul bosqinchilari quvib chiqarilgandan so'ng Samarqandda me'morchilik qayta rivojlangan (XIV asr oxiri va XV asr), arxitektura yangi yuksalish davri boshlangan.

Buyuk davlat barpo etgan Amir Temur Eron, Iroq, Ozarbayjon, Hindistonlardan ko'plab hunarmandlar, taniqli olimlar, iste'dodli me'morlar, qo'li gul quruvchilar, o'tkir xalq ustalarini Samarqand shahriga olib keladi va ularni arxitekturaviy inshootlar barpo etishga jalb qiladi. Amir Temur Samarqandni har taraflama obodonlashtirish va dunyoda tengi yo'q shaharga aylantirishni orzu qilgan hamda shu maqsadda qurilish va obodonlashtirish ishlarini boshlab yuboradi.

Bibixonim masjidining arxitekturasi. 1370-yil mart oyida Keshdan Balxga yurish qilib, Amir Temur Amir Husayn qo'shinlarini yengach, uning xotinlaridan biri Movarounnahrning chin ziyolilaridan bo'lgan sobiq hukmdor Qozonxonning qizi — Saroymulkxonim (Bibixonim) ga uylanadi.

Amir Temur tomonidan sevimli xotini Saroymulkxonimga atalib qurdirilgan Bibixonim masjidi Markaziy Osiyo me'morchilik san'atining klassik namunasi, mahovatli arxitektura inshootidir.

Uning joyini 1399-y 10-mayda Amir Temur tanlagan. Arxitekturaviy ansambl hovlili inshoot bo'lib, uning g'arbida bosh masjid salobat to'kib turadi, shimol va janubda kichik masjidlar qurilgan. Hovlisining sahni 63,8x76,0 m bo'lib, to'rt tarafdin ravoq va peshtoqlar bilan o'ralgan.

Uning umumiy sahni 167x109 m, burchaklarida baland minoralar bo'lgan. Bibixonim masjidining poydevori xarsang toshdan, devorlari pishgan g'ishtdan ishlangan (qalinligi 4,4-5 m). Hozir u bir-biri bilan bog'lanmagan bo'laklardan iborat. Hovlining to'rida mehrob va baland peshtoqli bino, ikki yonida uning kichik nusxasi, poyida masjidning ikkiga bo'lingan peshtoqi va shimoliy g'arbda alohida saqlanib qolgan minora mavjuddir.

Amir Temur maqbarasi me'moriy yodgorligi. Samarqand shahrining eng noyob me'moriy obidalaridan biri Amir Temur maqbarasidir.

Bu inshoot 1404-yilda Amir Temur ko'rsatmasi bilan Kichik Osiyoga yurish qilgan vaqtda (1403-yilda) vafot etgan sevimli nevarasi, taxt vorisi Muhammad Sultonga atab qurilgan. Bir oz vaqt o'tgach, 1405-yilning fevral oyida Xitoyga yurish qilgan chog'ida Amir Temur vafot etadi va u ham shu yerga dafn qilinadi.

Yuksak shaharsozlik usullariga ega, me'moriy dekor san'atiga boy, koshinkorlik ishlari juda ham sifatli, arka gumbazlarining arxitekturaviy shakl va proporsinallari uyg'unlashgan tarixiy yodgorliklarga serob Samarqandda yana bir yangi uslub – relyefli bezak qo'llanilgan. Bu usulda ishlangan ikkita asar ham shu yerdadir (Bibixonim masjidi va Amir Temurmaqbarasi).

Registon maydonining me'moriy ansambli. Registon maydonida buyuk va noyob inshootlar — Ulug'bek (1417-1420-yillar), Sherdor (1619-1636-yillar) madrasalari va Tillakori madrasa-masjidi (1646-1647-yillar) barpo etilgan.

Ulug'bek madrasasi ekspluatatsiya qilish davrida tashqi ta'sirlar, zilzilalar va ichki janglar oqibatida jiddiy talofot ko'rgan. Tashqi gumbazlar, ikki minora va ko'pgina yashash xonalari vayron bo'lgan ko'rinishi (1447- 1420-yillar).

XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir hashamatli binolar qurishga boshqa beklar bilan raqobat qilib, vayrona holatidagi Ulug'bek xonaqohi o'rniga Sherdor madrasasini, Mirzoyi karvonsaroy o'rniga

Tillakori madrasa - masjidini qurdirgan. Tillakori va Sherdor madrasalari katta o'lchamlilik, pardozi ishlarining nozikligi bilan ajralib turadi.

Ulug'bek rasadxonasi. 1428-1429-yillarda Samarqandda Ulug'bek rasadxonasi qurilgan. Rasadxona binosi yo'qolib ketgan bo'lgan. Uni ko'p izlanish va mehnatlar evazida arxeolog Vyatkin 1908-yilda topgan. Doira shaklidagi bu tarixiy inshootning diametri 46 m ni, balandligi 30 m ni tashkil etgan. Binoning asosini burchak o'lchagich (tik aylana) tashkil etadi. Aylananing radiusi 40,2 m, yoy uzunligi 63 m ga tengdir. Inshootning asosiy asbobi - Sektant meridian bo'ylab o'ta aniqlikda o'rnatilgan.

Ishratxona arxitekturaviy yodgorligi. Rivoyatlarga ko'ra, bu inshootni Amir Temur xotinlaridan biriga atab maqbara sifatida qurdirgan.

Maqbarani ko'rgani kelgan Amir Temur uni muhtashamligidan hayratlanib, mahbubasiga bu maqbara emas, balki shod-xurramlik uyi-ishratxona bo'lishi lozim degan. Boshqa rivoyatlarga ko'ra, Bibixonim bunyod ettirgan. Maqbaraning nomi Ishratxona emas, Ashratxona (arabcha o'nta xonkli) degan fikr ham bor.

XVIII–XIX asrlar arxitekturasi. XVIII asr va undan keyingi davrlarda Samarqand shahri ko'p janglar, shu jumladan Buxoro va Qo'qon xonliklari orasida urushlar natijasida ko'pgina talofotlar ko'rgan, me'morchilik unchalik tez rivojlanmagan.

Ichki feodallar orasidagi munosabatlar keskinlashuvidan foydalangan Rus podshosi XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo shaharlarini bosib olgan. O'sha davrda Turkiston o'lkasining barcha aholi yashaydigan joylar shigari Samarqand shahri ham ruslar qo'lga o'tgan. 1887-yildan boshlab Samarqand shahri shu nomli viloyatning markazi ga aylangan.

Rus podshohligi davrida Samarqandda oino va inshootlar qurilishi yevropacha tus ola boshlangan. Biroq bu davrda ko'zga yaqqol tashlanadigan arxitekturaviy inshoot barpo etilmagan desa xato bo'lmaydi. 1875-yilda hozirgi SamDIJ bosh binosi oldida niholchilik

bog'i tashkil qilinib, 1881-yildan boshlab u yerdagi Abram bulvariga yosh nihollar o'tkazilgan.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Vaxitov M.M., Mirzayev SH.R. Me'morchilik. 1 qism. Me'morchilik tarixi. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2010.
5. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
6. Засипкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М., 1948.
7. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
8. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
9. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. – Buxoro, 2009.
10. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. – Buxoro, 2009.
11. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. – Buxoro, 2009.
12. www.ziynet.net
13. www.history.ru

13- mavzu: Buxoro shahri me'morchiligi tarixi.

Reja:

1. Ark qal'asi va Ismoil Samoniy maqbarasi.
2. Minorai Kalon.
3. Mag'oki Attori masjidi me'morchiligi.
4. Chashma Ayub maqbarasi.
5. Sayfiddin Boxarzi va Buyan Qulixon maqbaralari.
6. Ulug'bek madrasasining arxitekturasini.
7. Masjidi Kalon arxitekturasini.
8. Mir Arab madrasasining arxitekturasini.
9. Labi hovuz me'moriy ansambli.
10. Xo'ja Zayniddin va Baland masjidilari me'morchiligi.
11. Toq, tim va hammomlar arxitekturasini.
12. Qo'sh madrasa arxitekturaviy ansambli.
13. Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti.
14. Chor Bakr arxitekturaviy ansambli.
15. Chor Minor madrasasi arxitekturasini.
16. Bolohovuz masjidining arxitekturasini.
17. Sitorai Mohi Xosa me'moriy kompleksi.

Maqsad: Ark qal'asi. Ismoil Samoniy maqbarasi. Minorai Kalon. Mag'oki Attori masjidi me'morchiligi. Chashma Ayub maqbarasi. Sayfiddin Boxarzi va Buyan Qulixon maqbaralari. Ulug'bek madrasasining arxitekturasini. Masjidi Kalon arxitekturasini. Mir Arab madrasasining arxitekturasini. Labi hovuz me'moriy ansambli. Xo'ja Zayniddin va Baland masjidilari me'morchiligi. Toq, tim va hammomlar arxitekturasini. Qo'sh madrasa arxitekturaviy ansambli. Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti. Chor Bakr arxitekturaviy ansambli. Chor Minor madrasasi arxitekturasini. Bolohovuz masjidining arxitekturasini. Sitorai Mohi Xosa me'moriy kompleksi to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish va bu boradagi ma'lumot berish.

Ark qal'asi va Ismoil Samoniy maqbarasi. Eng ko'hna madaniy meros obyektlaridan biri Ark qal'asi bo'lib, u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro arki milodning boshlarida qurila boshlanib, XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida ansambil holiga kelgan.

Ark qal'asining barpo etilishi Eron podshosi va turk ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog'liqdir. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samarqand podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda - Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida to'xtagan va shaharning yaratilishiga asos solgan. Siyovush Afrosiyob tomonidan o'ldirilganlrgidan keyin Buxoroning sharq darvozasi yonida ko'milgan degan rivoyatlar bor.

VII asrda Buxoro hokimi Bidun vayrona holiga kelgan arkni qayta tiklatgan. O'sha davrda ark oldida katta maydon - registon, uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo'rg'onlari bo'lgan. Hokim va uning qarindoshlari qo'rg'oni yonida asosiy shahar — shahriston joylashgan.

Ko'plab me'moriy yodgorliklarni o'zida jamul-jam etgan ko'hna Ark qal'asi ko'p asrlar mobaynida amirlikning qarorgohi bo'lib kelgan. Bu yerda amir, uning bosh vazirlari, harbiy boshliqlar, amirning ko'p sonli xizmatchilari yashaganlar. Ark qal'asida hukumronlar uchun saroy, ko'rinishxona, masjid va turar joy binolari barpo bunyod etilgan.

Ark qal'asi baland mustahkam peshtoq bilan ulug'langan. Registon maydonining salobati hokimiyatning buyukligini ko'rsatgan, uni bosib olish mumkin emaslik belgisini bildirgan. Uning devorlari tevaragida shahriston joylashgan. Shahristonni savdo-hunarmandchilik maskani — rabot qurshab turgan.

Ark qal'asida Rudakiy, Firdavsiy, Abu Al ibn Sino, Farobiy, Umar Xayyom singari ulug' insonlar yashab ijod qilganlar. Ark to'g'risida Abu Ali ibn Sino quyida keltirilgan fikrni bildirgan: «Men bu yerdagi kutubxonada shunday kitoblarni topdimki, ularni avval ko'rmaganman va umrimda boshqa ko'rmadim ham. Men ularni o'qidim va shundan keyin har bir olimning o'z fani bo'yicha o'rnini angladim. Mening oldimda fanlarning tubidagi shunday eshiklari ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kitobxonaning keyingi taqdiri sir bo'lib qolgan. Kutubxona janglardan birida talab ketilgan bo'lsa ajab emas degan» ma'lumotlar bor.

Ismoil Somoniy maqbarasi. Markaziy Osiyo aholisiga islom dinini qabul qildirilishi, Somoniylar davrida uni davlat dini sifatida shakllanishi va mahalliy xalq uchun uni e'tiqodga aylantirilishi arxitekturada ham, binokorlikda ham o'z aksini topgan.

Ko'plab monumental binolar, diniy inshootlar, karvonsaroylar, jamoat binolari qurila boshlangan. Shaharlar va aholi punktlarida masjidlar, madrasalar barpo etilishi rivojlangan. Jome' masjidlar oldida azon aytish uchun minoralar tiklangan. Turar-joy binolari qurish ishlari ham ma'lum tarzda rivoj topgan. Bu binolar qurilishida sinchli konstruksiyalar ishlatilgan. Bino va inshootlarning yog'och elementlari (ustun, eshik, shiftlar) o'ymakorlik, sir berish yo'llari bilan pardoqlangan.

Monumetal inshootlar barpo etishda avvallari xom g'ishtlar, keyinchalik esa pishgan g'ishtlar ishlatilgan. Binolar arxitekturasida gumbaz, ravoq va peshtoqli konstruksiyalar qo'llanila boshlagan. Bu konstruksiyalar, asosan ganch qorishmalari asosida pishgan g'ishtdan tayyorlangan.

O'sha davrdan hozirgacha saqlanib kelinayotgan katta ahamiyatga ega bo'lgan nodir va noyob inshootlardan-me'moriy yodgorliklardan biri bu Ismoil Somoniy maqbarasidir.

Minorai Kalon. Buxoroning belgisi hisoblangan Minorai Kalonning barpo etilish vaqti va Rabot Malik karvonsaroyining qurilish davri Qoraxoniylar davriga to'g'ri keladi. Tarixdan ma'lumki, X asrning ikkinchi yarmida Somoniylarga qarshi turk g'ulomlaridan iborat harbiy boshliqlar ishtirokida fitna va qo'zg'olonlar boshlanib ketgan. Natijada 996-yilda turklar Buxoroda qo'zg'olon ko'targanlar va bu yerni egallaganlar. 999-yilda Nasr tomonidan shaharni egallab olinishi Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmronligini o'rnatgai. Ular 1141 yilgacha davlat boshida turganlar.

Buxoroda 1127-yilda bunyod etilgan Minorai Kalon jahon me'morchiligining, me'moriy-muxandislik san'atining yuksak cho'qqisiga chiqqan asarlaridan hisoblanadi. Keyinchalik bu yerda Poyi Kalon me'moriy ansambli shakllangan.

Minorai Kalon Buxoro shahrining qiyofasini belgilab bergan va hozir ham u Buxoroning belgisidir. Minoraga noyob shakl berilgan bo'lib, poypeshi qirrador, tanasi konussimon shaklda, yuqoriga qarab toraya boradi; muqarnasli qafasa bilan tugaydi. Balandligi 50 m (ba'zi adabiyotlarda 46 m, ba'zi manbalarda 47 m degan ma'lumotlar keltirilgan), devorlarini qalinligi 0,8-0,9m, poydevor chuqurligi 10m gacha ketgan. Poypesh qismida inshootning doira diametri 9m ni tashkil etadi. Minora ichidagi 105 pog'onadan iborat bo'lgan aylanma zina - rotonda orqali uning tepasiga chiqiladi. Minoraning tepasida ichidagi zinapoyani yoritish uchun 16 ravoqli darchalar o'rnatilgan, ular orqali atrofni kuzatish mumkin. Uning ustida esa bosqichma-bosqich chiqarilgan karniz ishlangan.

Mag'oki Attori masjidi me'morchiligi. Naqshinkor devorli inshootlardan yana biri Mag'oki Attori masjididir. U Minorai Kalondan sal keyinroq XII asrda qurilgan barpo etilgan, XIV asrda esa qayta tiklangan.

Mag'oki Attor masjidi uncha katta bo'lmagan kvartal ichidagi inshoot hisoblanadi. U bino assimetrik qoidaga binoan tiklangan. Kirish eshigi arkasi hamda portal gumbazining shakli ham o'zgacha ishlangan.

Masjidning dastlabki holatidan faqat bosh fasad arxitekturaviy elementlari bilan birga saqlangan. Devorlari kesilgan va kesilmagan, o'yilgan va o'yilmagan g'ishtlardan, ularning to'plamidan bezakli qilib ishlangan. Inshootni barpo etishda kesilgan terrakotali plitkalar bilan to'ldirilgan relyefli yechim qo'llanilgan. Arkaning kuchaytirilgan konstruksiyasi moviy sayqal holda ajratib ko'rsatilgan, inshootga yozuvlar ham tushirilgan. Olti ustunli ko'p burchakli masjid intereriga bezak berilmagan.

Chashma Ayub maqbarasi. Chashma Ayub maqbarasi Amir Temur farmoy'shi b'an 137Q-yilda qurilgan. U hozirgi Somoniylar parki hududida, bog'ning shimoliy tomonida joylashgan.

Maqbaraning eng qadimgi qismi kvadrat tarhdagi (4,5x4,5 m) go'rxona bo'lib, ziyoratchilar uchun o'z vaqtida ikki yonida ikkita eshigi ham bo'lgan. Old tomoniga toqli bino (4,5x4,5 m) tutashtirilgan, u maqbaraga peshtoq bo'lib xizmat qilgan. Go'rxona qo'sh gumbaz, peshtoq va kichik gumbaz bilan qoplangan, uning

ostida Chashma Ayub nomli payg'ambarga atalgan muqaddas quduq bor, binoning nomi ham shundan kelib chiqqan.

Keyinchalik maqbaraga taqab gumbazli zal, burchaklarida minorali dahliz qurilgan. Shunday qilib, maqbara g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan, u to'g'ri to'rtburchak shakliga (10x26 m) kelib, binoning qadimgi qismi ichkarida qolgan. To'rt bo'limdan iborat maqbaraning har binosi gumbaz bilan qoplangan, ular bir-biriga o'xshamaydi.

Inshoot devorlar bilan o'ralgan va Xorazm me'morchiligi an'anasi - konussimon gumbaz bilan yopilgan bir necha xonalardan iborat bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklida ishlangan.

Sayfiddin Boxarzi va Buyan Qulixon maqbaralari. Temuriylar davriga mansub Buxorodagi me'moriy yodgorliklar qatoriga Sayfiddin Boxarzi va Buyan Qulixon maqbaralari ham kiradi Sayfiddin Boxarzi Chingizxon lashkarlari tomonidan vayron etilgan xalqning sevimli masjid va madrasalarini saqlashga buyuk hissa qo'shgan insonlardandir. 1261-yilda Sayfiddin Boxarzining o'limidan so'ng diniy idora uning nomini muqaddas deb e'lon qilgan. Shundan so'ng Fatxobod qishloqchasida uning qabri ustida xonaqoh qurilgan. XIII-XIV asrlarda Sayfiddin Boxarzi - «jahon shayxi»qabri ustiga maqbara bunyod etilgan.

Shaklining ulkanligi, konstruksiyalarining kattaligi bilan Sayfiddin Boxarzi yodgorligi e'tiborga sazovordir. Somoniylar maqbarasiga o'xshab faqat maqbara emas, balki u ham daxmaxona, ham ziyoratxonalardan tashkil topgan. Demak, bu maqbaraning rejasi bir muncha murakkablashgan. Xonalarning ustida ikkita gumbazning yarati isl ' maqbara binosi shakli va kesimini aniqlab bergan. Devorlarning chk va tashq tomonlarida bezaklar, naqshlar bo'lmasligi, ushbu inshootning yana bir fardi jihatidir. Shunga qaramasdan inshoot e'tiborga loy iq darajada puxta ishlangan.

Ulug'bek madrasasining arxitekturası. Temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqanddan tashqari Buxoro (1417-yil) va

G'ijduvonda (1433-yil) ham madrasalar qurdirilgan. Demak, Temuriylar davrida Buxoroda nafaqat din, balki maorif ham rivoj topgan.

Buxoro shahridagi madrasa Mirzo Ulug'bek barpo ettirgan uch madrasaning eng qadimiysidir. Ushbu madrasa to'g'ri to'rtburchak shaklida, old eshigi serhasham peshtoqli ishlangan. Kiraverish - yo'lak (miyon xona) ning bir tomonida darsxona, ikkinchi tomonida masjid joylashgan. Miyonxonaning ikkinchi qavatida kutubxona faoliyat ko'rsatgan. Madrasa hovlisida yana ikkita peshtoq bo'lib, ularning har ikkala tomonida minoralar qurilgan. Peshtoqlar pastidan yuqorisigacha bejirim g'ishtchalar, guldor koshinlaradan ishlangan hoshiyador naqshlar bilan bezatilgan. Madrasaning fasadi kishini hayratga solarli darajada uyg'un, shakli vazmin va tik, proporsiyasi e't- iborni tortadigan, konstruksiyasi va bezagi o'ziga mosdir.

G'ijduvonda bunyod etilgan madrasa nisbatan kichik va soddaroqdir. Madrasa bir qavatli, tarhi kvadrat bo'lib, hovli, masjid, darsxona va yotoqxonalardan iborat.

Binoning old tomonida peshtoq, uning yonlarida minoralar barpo etilgan. Eshik qarshisida g'arbiy devorga ravoq ishlangan, uning ichi koshin bilan bezatilgan. Hovlini ng yonida beshtadan hujra bor. Ushbu madrasa oxirgi marta 2003-yilda ta'mirlangan.

Temuriylar davr me'morchiligida peshtoqilarning ikki yonboshida minoralar o'rnatish odat tusiga aylangan, keyinchalik bu yechimdan qaytilgan va peshtoqilar proporsya qoidasi bilan ishlangan.

Masjidi Kalon arxitekturası. XVI asr boshida o'troq va ko'chmanchi qabilalardan tarkib topgan yangi dinastiya - Shayboniyxonlar Buxoroni ishg'ol qilganlar. XVI asrning kkinchi yarmida poytaxt Samarqand bo'lib qolsada, Buxoro Qoraxoniylar davlatining siyosiy markaziga aylangan. Bu davrga kelib shahar devorini yana qayta qurish zaruriyati tug'ilgan. Shaharda hunarmandchilik va savdo rivojlangan. Buxoro ko'p davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalarni o'rnatgan. 1557-yilda erkin savdoga ruxsat so'rash uchun Buxoro vakillari Rossiyaga yuborilgan.

XVI-XVII asrlarda Buxoro me'morchiligi va binokorligi gullab yashnagan. Shaharning bosh rejasi o'zgargan. Shahar qayta qurilgan.

Bugunga qadar saqlanib kelinayotgan madaniy meros obyektlari, inshootlari tiklangan. Noyob arxitekturaviy yodgorliklarning barpo etilishi Buxoroning o'ziga xos me'morchilik maktabi borligidan va o'sha davrda bu maktabning naqadar rivojlanib ketganligidan guvohlik beradi.

Ana shu rivojlangan davrning noyob arxitektura yodgorliklaridan biri Masjidi Kalondir Masjidi Kalon joyida dastlab 1121-yilda Juma masjidi bunyod etilgan. Vaqt o'tishi bilan u inshoot vayronaga aylangan. 1514-yilga kelib, bu inshoot Masjidi Kalon sifatida qayta qurilgan. 1097-yilda Buxoroning 2500 yillik yubileyi munosabati bilan Masjidi Kalon obdon restavratsiya qilindi.

Mir Arab madrasasining arxitekturasi. Mir Arab madrasasi 1520-1536-yillarda Mir Arab nomi bilan tanilgan Abdulla Yamainiy rahbarligida qurilgan.

Tarixdan ma'lumki, ko'p yuz yilliklar davomida Buxoroda islom dini o'rganuvchi ahli toliblar tarbiyalangan. Feodalizm davrida Buxoroda juda ko'p monumental inshootlar qurilgan. Faqat XVI asrda o'ndan ortiq madrasalar barpo etilgan. Ulardan bir qanchalari bizgacha saqlanib qolgan.

Bu davrda Buxoroning va butun Markaziy Osiyoning siyosiy va ma'naviy hayotida islom dinining roli oshgan. Ko'pchilik dinga sig'inuvchi xizmatchilar yirik feodallardan bo'lgan. Ular o'zlarini ko'rsatish, borliklarini bildirish, nomlarini ko'rsatish va ulug'lash maqsadida masjid va madrasalar qurdirganlar.

Mir Arab madrasa jahonga tanilgan va musulmon dunyosining yirik diniy oliy maktablaridan hisoblanadi. U madrasa inson tafakkurining mahsuli bo'lgan ajoyib arxitektura yodgorligidir. Mir Arab madrasasining peshtoqi Masjidi Kalonning portali bilan yagona o'qda joylashgan. Biroq madrasa bir oz balandroqda bunyod etilgan. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, u joy bir oz past bo'lgan, shuning uchun bino asosi tuproq bilan to'ldirilib ko'tarilgan.

Rivoyat qilishlaricha, o'sha davrdagi Buxoro podshosi uch ming nafar erkak va ayollarni qul sifatida pullagan. Bundan tushgan mablag'ni u Abdulla Yamaniy degan mashhur kishiga madrasa barpo etish uchun bergan.

Labi hovuz me'moriy ansambli. XVII asrda qurib bitkazilgan Buxorodagi noyob va yirik me'moriy ansamblardan yana biri Labi hovuzdir. Ansambl tarkibiga kiruvchi Ko'kaldosh madrasasi, 1568-1569- yillarda, Devonbegi xonaqosi, 1622-yilda qurib bitkazilgan. Me'moriy ansamblning markaziy elementini Labi hovuz tashkil etadi.

Hovuzning eni 36 m, bo'yi 45,5 m, chuqurligi 5 m. Hovuz devorlari sinchlar bilan mustahkamlanib, shag'al va tuproq bilan to'ldirilgan va shibbalangan. Marmardan nishablar ishlangan.

Hovuzning o'zini ansamblni birlashtiruvchi elementi sifatida barpo etilishi Markaziy Osiyo shahar arxitekturasining yutug'idir. Hozir hovuz atrofi tut daraxtlari. chinorlar bilan o'ralgan, u yerda zamonaviy choyxona, oshxona va boshqa hordiq chiqarish joylari yaratilgan.

Labi hovuzning nomi bo'yicha ba'zi rivoyatlar bor. Buxoro amirining vaziri - devonbegi xonaqohini qurib bitkazgandan keyin uning yaqinida bir ayolga tegishli bo'lgan yerda yirik suv hovuzi qurmoqchi bo'lib, undan joyni olishga rozilik so'raydi. Ammo vazir u ayoldan rad javobini oladi. Shundan so'ng vazir ayolning hovli ostidan kanal o'tkazadi. Suv uyning devorlarini yemira boshlaydi. Bu hodisadan keyin ayol hovlisini vazirga berishga majbur bo'ladi. Bu yerning nomi ana shu zo'ravonlikdan kelib chiqqan va u o'z vaqtida «Xavuzi bazo'r» (Zo'ravonlik hovuzi) deb atalgan deyiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ansamblning shimoli-sharq tomonida Ko'kaldosh madrasasi barpo etilgan. Uni Buxoro amirining vaziri Qulbobo Ko'kaldosh qurdirgan. Bu madrasa Labi hovuz ansamblidagi eng katta imorat va Buxorodag eng katta madrasa hisoblanadi.

Xo'ja Zayniddin va Baland masjidлари me'morchiligi. Xo'ja Zayniddin masjidi 1555-yilga qadar qurilgan. Buning arxitekturasida misolida monumentallikka sig'inish va maqsadga muvofiqlikning birinchi marta uyg'unlashganini ko'rish mumkin. U markazlashma-gumbazli masjidning ikki tomoni tor ko'chaga, qolgan ikki tomoni turar-joylarga qarab joylashgan. Tomonlarr soyali peshayvon va mahallani suv bilan ta'minlash maqsadida

barpo etilgan tosh hovuz bog'lab turadi. Masjidning naqadar darajada qimmat qurilishi, bejirimligi va atrofida joylashgan oddiy uylarning ko'rinishidan feodallar va kambag'al xalq orasidagi keskin farq yaqqol bilinib turgan. Gumbazning o'rta qismi qavariq qovurg'alar bilan tor sektorlarga bo'lingan. Interer moviy-ko'k va sariq-qizil ranglar majmui yordamida ishlangan, geometrik figuralar bilan to'ldirilgan va bezatilgan. To'g'ri to'rtburchakli shakllarga bo'lingan panellar noyob tarzda bajarilgan. Bosh gumbazli xonaga ikki tarafdin ayvonni tutashtirilishi uning an'anaviyligini va feodal davri me'morchiligining qadimgi namunasidan kelib chiqqanligini bile rib turadi.

1555-yilda Buxoroning g'arb tomonida Masjidi Baland qurilgan. U mas d Buxoro me'morchiligida guzar, mahalla tipidagi yangilik namunasi (JO 40-rastfi). Bu yerda katta devor sirlari o'ylab topilgan an'anaviy proporsional qoidaga ko'ra qismlarga bo'lingan: panellar, ularning ustida takrorlanadigan katta va kichik pannolar, so'ngra friz ishlangan.

Toq, tim va hammomlar arxitekturalari. Toqlar bosh magistral yo'llarning chorahalarida barpo etilgan. Ularning konstruksiyasi oddiy bo'lmagan. Toqlar hozirgi vaqtda birinchi («Toqi Sarrafon»), ikkinchi («Toqi Telpakfuro'shon») va uchinchi («Toq Zargaron») gumbazlar deb ham yuritiladi.

Toqi Zargaronning arkali bosh gumbazi kvadrat asos ustidagi shaklda konstruksiyasining ustida o'rnatilgan. U chorahada nafaqat yo'l harakatini tartibga solgan, shuningdek, uning ichki qismida chuqurlik bo'yicha 36 ta murakkab bo'lmagan ishlab chiqarish inventarlari joylashgan ustaxona va tilla do'konlar ish yuritgan.

«Toqi Zargaron» shahriston bozorining taxminan bosh chorahasiga mos keladi. U o'zining nomini bugungacha saqlab kelgan. Ushbu inshoot qatnov yo'lining ustida bunyod etilgan, qadimgi shahristonning markazida bo'lgan.

«Toqi Zargaron»dan janubga boraverishda chap qo'lda Abdulloxon timi, undan keyin, ro'parasida «Toqi Telpakfuro'shon» joylashgan. Abdulloxon timi (usti berk savdo rastasi) 1577-yilda bunyod etilgan. Tim kvadrat shaklida,

devorlariga ikki tomondan ravoqli tokchalar joylashgan. O'rtadagi miyon saroy baland gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklar yorug' tushishi uchun mo'ljallangan.

O'tmishda bu timda shoyi va jun gazlama bilan savdo-sotiq qilingan. Inshoot faqat kun yorug'ligida faoliyat ko'rsatgan. Kunduzlari xonalarni yoritishni yaxshilash maqsadida gumbaz va qator gumbazchalar tepasidan baraban shaklida arkali fonar va fonarchalar o'rnatilgan. Bosh gumbaz sakkizlik konstruksiyasi ustida o'rnatilgan. Bosh gumbaz osti maydoni usti kichik gumbazlar yordamida yopilgan galareyalar bilan birlashib, yaxlit yopiq bozorni tashkil etgan. Yopiq bozorning ichi doim salqin va nisbatan qorong'i bo'lgan.

XVI asrda qurilgan bu hammomlarning yechim Buxoroning an'anaviy fuqarolik binolari sifatida katta qiziqish uyg'otgan. Unda o'rta asr sharqining hammomlariga o'xshash boy tuzilish yo'q, biroq injener-texnik yechim nuqtai nazaridan zamonaning yutuqlari aks ettirilgan.

Qo'sh madrasa arxitekturaviy ansambli. Qo'sh madrasa ansambli Registon maydonining janubi-g'arb tomonida joylashgan. Bir o'q bo'yicha ro'para turuvchi ikki inshoot yaratish usuli Buxoro me'morchiligi uchun xos jihatdir. Ulardan biri - Modarixon madrasasi 1566-1567-yillarda, ikkinchi-Abdullaxon madrasasi 1588-1590-yillarda barpo etilgan Modarixon madrasa g'arbga qaratib joyiashtirilgan bo'lib, Abdullaxonning onasi sharafiga qurilgan. Madrasa tarhi trapetsiya shaklida. Bosh fasad katta peshtoq, ikki qavatli ayvon va burj-guldastalar bilan bezalgan. Peshtoq va burchaklardagi guldastalar sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Toqilar orasidagi bag'allarga koshinlar bilan geometrik shakllar berilgan. Madrasaning boshqa yerlari bezaksiz ishlangan. Madrasa o'rtasida to'g'ri to'rtburchak hovli, uning atrofida peshayvonli hujralar mavjud. Bino burchaklarida darsxonalar joylashtirilgan. Inshoot konstruksi o'sha asr Buxoro me'morchiligiga xos ravishda ishlangan, ya'ni devorning ikki chekkasi pishiq g'ishtdan terilib,

o'rtasi qurilish chiqindilari bilan to'ldirilgan. Ba'zi fikrlarga ko'ra, bu yechim inshootni abadiyligiga salbiy ta'sir qiladi.

O'lchamlari bilan kishini hayratga soladigan, uzoqdan qaraganda chiziqlari takomillashgan, bezaklarning tugallangan shakli va tiniqligi bilan yaqqol ko'zga tashlanadigan arxitekturaviy ansamblning qoyilmaqom uyg'unlashganligi me'morchilik va qurilish texnikasining yuqori darajaga erishganligidan guvohlik beradi.

Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti. Buxoroning shimoli-g'arb tomonida, shahardan 10 km uzoqlikda Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti barpo etilgan.

Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti barpo etilishiga Abdulazizxon ibn Ubaydulloxon 1544-yilda asos solgan. Abdulazizxon buyrug'i bilan mozor tarfiga solinib ansambl shakliga keltirilgan va 1544-1545-yillarda kompleksning eng katta binosi-xonaqoh qurilgan. Kompleksning asosiy qismiga daxmalalar, maqbara, ikkita masjid, sakxona, hovuz, quduq, minora, madrasa va Abdullaxon xonaqohi kiradi. Hozirgi vaqtga kelib uning safiga baland peshtoq — gumbazli yangi darvozaxona, muzey, choyxona sinngari imoratlar qo'shilgan.

Kompleks kichik gumbazli chortoq darvozaxonadan boshlanadi. Darvozaxonadan o'tgach, o'ngda kichkina masjid, chap tomonda ziyoratchilar uchun turli binolar bo'lganligi ma'lum. Yo'l davomida chapda xonlar mozori - Daxmai shohon joylashgan.

Daxmai shohon to'rtburchak, balandligi 2,5m, usti kulrang marmar bilan qoplangan. Unda ko'plab marmar o'ymakorligi, xattotlik san'atining ajoyib namunalari mavjud. Marmarlarga tokchalar, ustunchalar, sharaflar, sarv sur'ati va boshqa bezaklar o'yilgan ba'zida naqshlar yozuvlar bilan aralash holda ham bajarilgan.

Bahouddin daxmasi marmar qoplangan kattagina kvadrat supa bo'lib, atrofi chiroyli marmar panjara bilan o'ralgan. Undan sal nari, shimolda – tomonlar 9,5 m keladigan aylana zinali marmar hovuz joylashgan. Daxma biian hovuz orasida

quduq bo'lib, uning yonidagi chiroyli shiypon – sakxona yaratilgan bo'lib, u yerda ziyoratchilarga «muqaddas» suv ulashilgan.

Hakim qushbegi masjidining shimolida minora, undan narida ichki hovlidagi hovizdan uch marta katta boshqa bir hovuz joylashgan. Hovlining tashqarisida (shimoli-g'arbda) to'rtburchak supa ustiga qurilgan eni 37 m, bo'yi 40 mli xonaqoh mavjuddir.

Chor Bakr arxitekturaviy ansabli. Buxoro shahrining g'arb tomonida, undan 5 km uzoqlikda joylashgan. Sumitan qishlog'ida Jo'ybari shayxlarining shahardan tashqaridagi nekropoli - Chor Bakr qurilgan. Ziyoratgohning bosh kompleksi 1560-1569-yillarda barpo etilgan.

Kompleks uzoq vaqt shakllangan. Daxmalar, darvoza, hovli, yo'lak, ko'p sonli qabrlar usti inshootlari bunyod etilgan. Chor Bakr oxirgi marta Mustaqillik davrida restavratsiya qilindi.

Me'moriy kompleks negizini tashkil etgan xonaqoh (shimolda), madrasa (janubda) va namozgoh (g'arbda) orasidagi sahn supa tarzida. 1900-yilda u yerda katta bo'lmagan minora bunyod etilgan.

Xonaqoh gumbazli xona (9x15,8 m) va peshtoqdan iborat. Xon fasadning qo'sh qavat ravoqlari va peshtoqi jozibador ishlangan bo'lib, peshtoqning ikki qanoti guldastalar bilan ulug'vor ko'rinadi.

Peshtoq bezagida koshindan terilgan yirik kufiy xatlar diqqatni jalb etadi. Gumbazning ostki konstruksiyasi ancha murakkab. Xonani ikki, ravoq ko'ndalangiga bog'lab, gumbaz uchun asos bo'lgan.

Madrasa peshtoqi kengroq, fasadni deyarli egallagan. Peshtoq dahanasi uch ravoqqa bo'lingan. Darsxona chortoqli, o'rtasi gumbaz bilan berkitilgan. Madrasaning yon fasadlari qo'sh qavat ravoqlar qatorini takrorlaydi Masjid va xonaqohning bosh fasadlarini peshtoq keng gumbaz bilan egallashi, yon tomonlari ikki qavatli ayvonlardan tashkil topishi shu xildagi binolar uchun an'anaviy yechim hisoblanmagan. Kufiy xatlar va mayda koshinkorli bezaklar mahorat bilan ishlangan.

Gumbazning tashqi ko'rinishi salobatli. Masjid maydoni sahnining to'rida joylashgan.

Marjid va xonaqohning bosh zallari baraban shakldagi gumbazlar bilan yopilgan. Ularning intereri jonli ishlangan. O'zaro kesishgan arkalar va chatishib ketgan paruslar ustida derazachali barabanlar, ularning usti esa gumbaz bilan yopilgan.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda Buxoroda iqtisodiy va siyosiy jihatdan tushkunlik yuzaga kela borgan. Bu davrlarda qurilishlar davom etsa-da, biroq me'morchilik san'ati sezilarli darajada to'xtab qolgan. Yaratilgan inshootlarning sifatlari badiiy va texnik jihatdan avvalgilarga nisbatan pasaygan.

XVIII asrning kkinchi yarmiga kelib Buxoro xonligi o'zining iqtisodiy va madaniy mavqeini yo'qota boshlagan.

Chor Minor madrasasi arxitekturası. XVII asr boshlarida siyosiy jihatdan mustahkamlanib, Markaziy Osiyo yerlarida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tashkil topgan. Shu davrdan boshlab, monumental va ommaviy binolar barpo etish yana rivojlana boshlagan. Feodal davrining so'nggi namunaviy shahar qurilishi hisoblangan Xivada ko'plab saroy, madrasa, masjidlar qurilgan. Xivadagi Tosh hovli, Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi, Samarqanddagi amir saroylari qurilish uslubiga ko'ra o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turgan. Buxoroda yangi turdagi inshootlar, shu jumladan Chor-Minor barpo etilgan. U o'zining to'rt ko'rkam gumbazi bilan boshqa obidalardan ajralib turgan.

Chor Minor madrasasini turkman Xalifa Niyozqul 1807-yilda qurdirgan. To'g'ri to'rtburchakli hovli atrofida bir qavatli ustun ayvonli xonalar joylashtirilgan. Janubi-g'arb tomonidagi burchakda sinchli masjid qavatli bo'lib, pastki qavati madrasaga kirish uchun yo'lak vazifasini bajarsa, tepadagi ikirinchi qavat kutubxona bo'lgan.

Madrasaga kirish qismi noyob me'moriy yechimda ishlangan. Markazlashma yechim, arka gumbazli imorat, uning to'rt burchagida

moviy gumbazli to'rt minora bunyod etilgan (nomi ham shundan olingan).

Minoralarning yuqori qismi geometrik shaklda koshin bilan naqshlangan va tepasi gumbazcha shaklda yakunlanib, koshin bilan qoplangan.

Chor Minor sodda arxitekturasini hamda ajoyib kompozitsiyasi bilan XIX asr me'morchiligida original ko'rinishga egadir. O'sha davrda bu kompleksga «Toqi Sarrafon»dan g'arbga tomon boraverishda chap qo'lda Olimxon karvonsaroyi ham barpo etilgan.

Bolohovuz masjidining arxitekturasini. Bolohovuz masjidi XVIII - XX asrlarda barpo etilgan. XVIII asrda hovuz oldida tomonlar o'lchami 11,5 m ni tashkil etgan gumbazli masjid qurilgan. Uning ro'parasida XX asrda buxorolik usta Qurbon Yo'ldoshev baland ayvon soldirgan, usta Shirin Murodov minora tiklagan. Nafis naqshlar ayvon shiftining avaylab saqlab kelinishini ta'minlagan. Masjid Bolahavuz masjidi qalqonsimon va murakkab relyeflar bilan bezatilgan. Mehrobgacha nafis naqshlar ishlangan. Ganch shuvoqli peshtoq masjidning sharq tomonida bo'lib, bo'g'ot osti ganch naqsh bilan bezatilgan, shifti qandilli. Peshtoqning yon tomonlariga ikki qavatli baland tokchali hujralar qurilgan. Bolohovuz masjidining 20 ta baland va naqshinkor ingichka yog'och ustunli ayvoni kishini hayratga soladi. Ayvonning yon devorlaridagi tokchalari naqshlar bilan bezatilgan. Bu yerda juma namozi o'qilgan, shuning uchun ham masjidning ayvoni va qandil osilgan sipi, ayniqsa, serhasham ishlangan. Ansambl o'zining badiiy nafosati bilan Registon maydonining tarkibiy qismiga aylangan.

Sitorai Mohi Xosa me'moriy kompleksi. Buxoro shahrining shimoliy tomonida Sitorai Mohi Xosa madaniy meros obyekti - amirlikning yozgi qarorgohi, saroyi barpo etilgan.

Sitorai Mohi Xosa mang'itlar sulolasining saroyidir. Uning dastlabki imoratlari amir Nasrullo hukmronligi davri (1826-1860- yillar) qurilgan.

Biroq bu yerda saroy va xushmanzara bog' barpo etish amir Abdulahadxon hukmronligi davrida (1885—1910-yillar) boshlangan. Amir Olimxon hukmronligi davrida (1910-1920-yillar) yangi saroy tiklangan va shu davrdan boshlab saroy kompleksi yangi va eski saroyga ajratilgan.

Eski saroy uch hovlidan va ko'pgina xonalardan iborat ansambldir. Bu yerdagi eng eski xona amir Muzaffarxon mehmonxonasi (1860-1885-yillar) keng va baland zal, ikki tomonidagi boloxonali ayvonlar, yevropacha eshik va derazalar bilan ajralib turadi. Mehmonxonaning devoriy rasmlari va ranglarida motivlar uyg'unlashgan.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Vaxitov M.M., Mirzayev SH.R. Me'morchilik. 1 qism. Me'morchilik tarixi. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2010.
5. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
6. Засипкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М., 1948.
7. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
8. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
9. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. – Buxoro, 2009.
10. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. – Buxoro, 2009.
11. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. – Buxoro, 2009.
12. www.ziynet.net
13. www.history.ru

14- mavzu: Xiva shahri me'morchiligi tarixi.

Reja:

1. Ichan qal'a.
2. Juma masjidining arxitekturası.
3. Toshhovlining me'moriy yechimi.
4. Ota darvoza yodgorligi.
5. Muhammad Aminxon madrasasi me'morchiligi.
6. Kalta Minor.
7. Pahlavon Mahmud maqbarasi.
8. Arxitekturaviy inshootlar zilzilabardoshligi.

Maqsad: *Ichan qal'a. Juma masjidining arxitekturası. Toshhovlining me'moriy yechimi. Ota darvoza yodgorligi. Muhammad Aminxon madrasasi me'morchiligi. Kalta Minor. Pahlavon Mahmud maqbarasi. Arxitekturaviy inshootlar zilzilabardoshligi to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish va bu boradagi ma'lumot berish.*

Ichan qal'a. Ichan qal'ada me'moriy va shaharsozlik kompozitsiyalarini o'rganish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ichan qal'a Xivaning ichki qal'a qismidir. U Dishan qal'adan kungurador devor bilan qisman ajratilgan. Dishan qal'adan baland qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rinadi. Ichan qal'aga Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan darvozalaridan kirilgan.

Ichan qal'aning yaratilish tarixi uch davrga bo'linadi: mo'g'ullar istilosidan keyingi tiklanish (Sayd Alovuddin maqbarasi va boshqalar), XVI-XVII asrlardagi tiklangan (Anushaxon hammomi, 1657-yil; peshayvonli Oq masjid, 1675-yil; Xo'jamberdibek madrasasi, 1688-yil; xonning qabulxonasi, 1686-1688-yillar). XVIII -XX asrlardagi tiklanish.

Uchinch davrda mahalliy me'morchilik an'analari asosida masjid, madrasa, tim va toqlar qurilgan, Ota va Polvon darvozalari orasida katta yo'l o'tkazilgan, masjid qayta qurilgan, minoralar qad rostlagan. Qutlug' Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqlar qurilgan. Muhammad Rahimxon (1806-1825-yillar, Olloqulixon (1825-1842-yillar), Muhammad Aminxon (1845-1855-yillar) hukmronligi yillarida bu yerda qurilish avj olib ketgan. Muhtasham saroy,

madrasa, maqbaralar barpo etilgan. Toshhovli saroyi qurilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi qad ko'targan. Kalta Minor yuzaga kelgan va hokazo.

Ichon qal'a qurilishida Markaziy Osiyoda qadimdan qo'llanib kelingan uslub - inshootlarni yuzma-yuz qurish usul (qo'sh) dan foydalanilgan.

Binolarning alohida ansambl holida qurilishi ham Xiva me'morchiligining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Juma masjid yonida ikkita kichik madrasa, Muhammad Amin Inoq va Muhammad Aminatpanoboy minorasi hamda Matniyoz Devonbegi madrasasi qurilishi ancha yirik ansamblni tashkil etgan. Polvon darvoza oldida bir necha masjid va madrasalar, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyini barpo etilishi o'ziga xos ansamblni tashkil etgan. Qutlug' Murod Inoq bilan Olloqulixon madrasasi, Tosh hovli bilan Oq masjid o'rtasidagi maydoncha shu ansamblning kompozitsion markaziga aylangan. Xiva yodgorliklari yog'och o'ymakorligi, sangtaroshlik, ganchkorlik, sirkor sopol va boshqa rang-barang naqqoshlik bezaklari bilan bezatilgan.

Juma masjidining arxitekturası. XVIII asrda barpo etilgan ko'p ustunli Juma masjidi alohida ajralib turadi. Uning konstruktiv yechimi Arabistonning qadimgi masjidleri bilan hamohang ekanligidan dalolat beradi. Juma masjid ilk bor X - XI asrlarda qurilgan. Juma masjidning dastlabki binosi buzilib ketgan va o'rniga 1788-yilda xuddi shu usulda undan kattaroq yangi masjid qurilgan. Masjidning minorasi ham yangidan tiklangan.

Juma masjidi tekis tomli, bir qavatli imoratdir. Uni o'ziga xos o'yma naqshli ustunlar qo'riqxonai deyishadi. Bino tomini 218 ta naqshinkor ustun ko'tarib turadi. X - XI asrlarda qo'llangan naqshkor ustunlardan hozirgi vaqtda 25 tasi saqlangan. Masjidning avvalgi ustunlari Xorazmdagi turli binolardan yig'ib kelingan.

Hamma ustunlar muayyan kompozitsiya asosida loyihalashtirilgan. Bu inshootning eng nodir tomoni uning ustunli yechimidadir. Ustunlar pastdan yuqoriga qarab qadahsimon shaklda yo'g'onlashib boradi. Ustun o'rtasi kufiy usulda yozuv bilan naqshlanib, pastki, qismida qalin, ustki qismi

nisbatan siyrak o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Eng qadimgi ustunlarga uchburchak shaklidagi chuqur relyefli, o'simliksimon naqshlar solingan. XII asr ustunlarida avvalgilarning shakl mutanosibligi takrorlangan, biroq naqshlar birmuncha qayta ishlangan, ulardagi kufiy yozuvlari barg va gul naqshlar bilan chirmashtirib yuborilgan. Juma masjid ustunlarida Xorazm xalq o'ymakorligining boy ijodiy imkoniyatlari mujassamlashgan.

Toshhovlining me'moriy yechimi. Toshhovli arxitektura yodgorligi 1830-1838-yillarda Olloqulixon farmoyishiga ko'ra qurilgan. Dastlab haram, keyin mehmonxona va arzxonalar bunyod qilingan. Toshhovli mahalliy qurilish materiallari (marmar, pishgan g'isht, yog'och) dan foydalanib barpo etilgan. Saroy uch bo'limdan iborat - arzhovli, ishrat hovli va haram.

Devor va ayvonlari sirkor sopol, shiftlar esa naqshlar bihn bezatilgan. Devorlari koshinlangan, ganch, yog'och, tosh o'ymakorligi, bo'yama naqshlar bilan bezatilgan. Saroyda mavjud 163 xonadan turli maqsadlarda foydalanilgan.

Ota darvoza yodgorligi. Ota darvoza - Ichan qal'aning bosh darvozasidir. Shahanrig eng qadimgi tizimi - Ko'hna ark ham shu tomondan g'arbdan o'rab olingan.

Shimolda Bog'cha darvoza joylashgan, yaqinida quduq bor. Shahar shu yerdan boshlanadi degan rivoyat bor. Ota darvozadan sharq tomonga Polvon darvozagacha, Ichan qal'aning qoq o'rtasidan shaharning bosh ko'chasi o'tgan. Ko'cha bo'ylab ketgan Minora, Juma masjid va Saidboy ninoralar qatori birgalikda chiroyli kompozitsiyani tashkil etgan. Kardo ko'chasi Bog'cha darvozasi bilan qarshisidagi, janubiy tomondagi Tosh darvoza oralig'ida joylashgan. Ikki asosiy Ko'chalrning chorrahasi shaharning geometrik va jamoat markazini tashkil etgan. Bunday markaz Juma masjidi va uning minorasi bilan qayd etilgan Xiva me'moriy obidalarining ko'plari va e'tiborlilari mazkur ko'cha negizida vujudga kelgan. Ular Polvon darvoza tarafidagi qator inshootlar va ularning tarkibidagi Olloqulixon arki – toshhovlidir.

Muhammad Aminxon madrasasi me'morchiligi. 1851-1852-yillarda Ichan qal'ada Muhammad Aminxon madrasa qurilgan. Madrasa va minorani Xivadagi eng katta va go'zal ansambl qilish mo'ljallangan, biroq ishlar oxirigacha yetmay qolgan.

Madrasaning baland va bezakdor peshtoqi o'ziga xos mayda ravoqchalarga bo'lingan, burchaklaridagi mezanali burjlar binoga salobot va go'zal ko'rk bag'ishlab turibdi. Bino arxitekturasida Xiva me'morchiligidagi badiiy va konstruktiv uslublarning eng yaxshi namunalari qo'llanilgan. Madrasa ikki qavatli bo'lib, birinchi qavatda hujralar dahlizli, ikkinchi qavatda esa hujralar peshayvonli qilib bunyod etilgan.

Bu uslub Xiva madrasalarida ilk bor ushbu binoda qo'llanilgan. Ayvonlarning qurilishi sodda bo'lib hovlining umumiy arxitekturasiga mosdir. Ikki qavatli ayvonlardagi bag'allar va qarama-qarshi qo'yilgan peshtoqlar sirkor parchinlar bilan naqshlangan. Hujralar tepasi baxmal gumbaz bilan berkitilgan. Katta xonalarining gumbazlari burchaklardan chiqarilgan toqi qiya sath-qanosga (parusga) qo'yilgan. Peshtoqning yarim gumbaz tashkil etuvchi olti qirrali ko'rkam ravog'i ham sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Masjidning baland gumbazi peshtoqdan ancha yuqori ko'tarilib turadi. Madrasaning umumiy ko'rinishidagi bunday assimetrik holat uning yonida baland minora ham bo'lishini taqozo etgandek tuyuladi. Bunday uslub keyinroq Islomxo'ja madrasasi va minorasi kompleksida takrorlangan.

Kalta Minor. Kalta Minor Muhammad Aminxon madrasasi yonida 1855-yilda qurila boshlangan. Xonning fikricha, bu minora Markaziy Osiyodagi minoralarning eng go'zal eng kattasi va eng balandi bo'lish kerak edi lekin uning xotinini bevaqt o'limi tufayli minora oxirigacha qurilmay chala qolgan; Kalta nomi ham ana shundan qolgan. Inshootning hozirgi balandligi 26m, asosining diametri 14,2 m ni tashkil etadi. O'z salobati, ko'lami, oq, yashil, firuza rangdagi koshinli naqshlari bilan minora jozibadordir. Uning bezagida ko'k-firuza rangli koshinlar ko'p ishlatilgan, shu tufayli u Ko'k Minor deb ham ataladi.

Pahlavon Mahmud maqbarasi. Xiva arxitektura yodgorliklaridan biri Pahlavon Mahmud maqbarasidir. U moviy gumbazli xonaqoh, maqbara va ziyoratxonadan iborat kompleksdir. Maqbara Pahlavon Mahmud daxmasi ustida 1664-yilda qurilgan kichik sinch imorat o'rnida 1810-1835-yillarda bunyod etilgan. Unga peshtoq darvozaxona orqali kiriladi, so'ng kichik hovliga o'tiladi. Qarshisida buyuk peshtoq va gumbazli xonaqoh, maqbara, g'arbda qorixona, sharqda nafis o'ymakor ustunli ayvon joylashgan. Hovli sahnida «muqaddas» quduq bor.

Xonaqoh peshtoqining yuzasi g'ishtin; gumbazi moviy rang sirkor koshinlar bilan bezatilgan. Maqbaraning ichkarisi ham gumbaz qubbalarigacha moviy rang sopol bilan juda nozik va nafis ishlangan. Bezak gullar orasidagi so'zlar Pahlavon Mahmud ruboiylaridan keltirilgan.

1913-yilda Pahlavon Mahmud maqbarasi hovlining g'arbiga ikki qavatli qorixona, uning qarshisiga ayvon qurilgan. Kompleks Xiva me'morchiligining noyob namunasi bo'lib, unda XIX asrdagi badiiy san'at uslubi yorqin aks etgan.

Arxitekturaviy inshootlar zilzilabardoshligi. Qadimgi Xiva me'morlari tarixiy obidalarning zilzilabardoshligiga ham e'tibor berganlar. Yerni tekislab bo'lgach, uni ganch yoki gil qorishmasi bilan qoplaganlar (masalan, Xivada Sherg'ozixon madrasasi), so'ngra qum solganlar. Bu yo'l bilan, birinchidan - poydevorni yer osti sho'r suvlaridan himoya qilganlar, ikkinchidan - seymoizolyatsiya tadbirlarini amalga oshirganlar. Zilzila to'lqinlari bu qatlamda ancha so'nib qolgan.

Geologik va gidrogeologik sharoitlardan kelib chiqib, poydevor qismi 0,5 m dan 2,0 m gacha chuqurlikda o'rnatilgan. G'ishtlarning poydevor konstruksiyasida yotiq qatorlar bo'ylab emas, balki yon tomoni bilan yuzma-yuz qilib terilganligi zilzila vaqtida seysmik kuchlarni bir tekisda taqsimlanishiga imkoniyat yaratgan.

Inshootning yer usti qismida, 0,5 m balandlikda yog'och g'o'la yoki toshlardan maxsus qorishma bilan prokladka qo'yilgan. Ko'pchilik hollarda prokladka sifatida bir necha qatlam qamish ishlatilgan. Bu tadbir seysmik to'lqin energiyasini ancha

yutgan va tepaga deyarli kam qismini o'tkazgan. Bu gidroizolyatsiya vazifasini ham o'tagan.

Qadimiy mas'ul obyektlardan muhimi minoradir. Uni ustalaridan hisoblash matematikasi, geometriya, arxitektura va proporsiyalarning uyg'unligini seza olish malakalari talab etilgan. Injenerlik yechim nuqtai - nazaridan minorani zilzila vaqtidagi holatini tashhishtash qiyin masala hisoblanadi.

Minora balandligining oshib borishi, uning inersiya massasini oshishiga, boshqacha aytganda, zilzila davrida seysmik kuchlarning kattalashuviga olib keladi. Minora balandligiga qarab zilzila inshootni egilish yoki ko'chishiga olib kelishi mumkin. Bu masalani hal qilish uchun me'morlar va binokorlar dono yechim ishlab chiqqanlar. Minora balandlashgan sari uning diametri kichiklasha borgan. Bu me'moriy yechim zilzila vaqtida inshootni ustivorligini ta'minlay olgan.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Vaxitov M.M., Mirzayev SH.R. Me'morchilik. 1 qism. Me'morchilik tarixi. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2010.
5. Saidboboyev Z., Choriyev Sh. Maxsus tarixiy fanlar asoslari (o'quv qollanma). – T., 2015.
6. Засипкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М., 1948.
7. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
8. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. – Buxoro, 2009.
9. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. – Buxoro, 2009.
10. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. – Buxoro, 2009.
11. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. – Buxoro, 2009.
12. www.ziynet.net
13. www.history.ru

MUSTAQIL TA'LIM TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

«O'rta Osiyoda paleografiya, epigrafika va me'morchilik tarixi» bo'yicha talabani mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari hamda mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslublaridan foydalanadigan o'quv mashg'ulotlari turlari.

Mustaqil ish talabada fan bo'yicha hosil bo'lgan bilim va ko'nikmalarni ilmiy ijod orqali namoyon bo'lishini aniqlash maqsadida tashkil etiladi. Mustaqil ish mavzusi fanni o'tishning dastlabki soatlarida o'qituvchi tomonidan taqdim etiladi.

Talaba o'zi tanlagan mavzusi bo'yicha izlanishlar olib boradi. Dastlabki jarayonda mavzu bo'yicha adabiyot va manbalarni to'playdi. To'plangan adabiyot va manbalar asosida mavzuning ish rejasini tuzadi. Odatda mustaqil ish uchun soddaja reja tuzish tavsiya etiladi.

Mustaqil ishni yozish talabada ilmiy ko'nikmalarning shakllanishiga ham yordam beradi. Mustaqil ishni yozish jarayonida talaba tadqiqot ishlari uchun talab etilgan barcha jihatlariga to'la rioya etishi shart.

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. «O'rta Osiyoda paleografiya, epigrafika va me'morchilik tarixi» fanining maqsad va vazifalari

2. «Paleografiya»ning fan sifatida vujudga kelishi va insoniyat tarixidagi yozuv turlari

3. Arab paleografiyasi tarixi

4. O'zbek paleografiyasi tarixi

5. Epigrafikaning fan sifatida vujudga kelishi va epigrafik matnlarning turlari

6. Dunyo xalqlari epigrafikasi

7. O'rta Osiyo epigrafik yodgorliklari

8. Qadimgi davr me'morchiligi

9. O'rta asrlar davri me'morchiligi

10. Yangi tarix davri me'morchiligi

11. O'rta Osiyoda me'morchiligining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi

12. Samarqand shahri me'morchiligi tarixi

13. Buxoro shahri me'morchiligi tarixi

14. Xiva shahri me'morchiligi tarixi.

Fan ishchi dasturini shakllantirish jarayonida mazkur mashg'ulot uchun ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan soatlar hajmiga mos mavzular ro'yxati shakllantiriladi.

GLOSSARIY

Paleografiya – Paleografiya soʻzi istiloh sifatida ikkita yunoncha soʻzdan tashkil topgan: «palayos» – qadimgi va «grafo» – yozaman. Paleografiya fani qoʻlyozma manbalarining tashqi belgi-xususiyatlarini tarixiy rivojlanishda oʻrganadi.

Epigrafika – Epigrafika qattiq jismlar – tosh, metall, sopol va me'moriy yodgorliklarning u yoki bu qismiga yozilgan qadimiy va oʻrta asrlarga oid yozuvlar (bitiklar)ni toʻplash, ularni tadqiq qilish, nashr etish va sharhlash bilan shugʻullanuvchi yordamchi tarix fanidir.

Arxeografiya – Arxeografiya – yordamchi tarix fanlaridan biri boʻlib, qoʻlyozma manbalar va arxiv hujjatlarini qayta ishlash usullari va ularni nashrga tayyorlashning qoida va usullarini oʻrgatadigan fandir. Tarixiy manbalarni nashr qilish birinchi marta XV asrda Gʻarbiy Yevropada paydo boʻlgan. Oʻrta asr tarixiy manbalarining birinchi tanqidiy nashri esa XVI asrda paydo boʻlgan. Oʻzbekiston bir necha ming yillik davrni oʻz ichiga olgan boy arxeografik materiallar, ya'ni tarixiy hujjatlar va qoʻlyozmalarga ega. Arxeografiyaning bu kabi namunalari Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiya Sharqshunoslik institutida, arxiv va muzeylarda toʻplangan.

Manbashunoslik – tarixiy manbalarni izlab topish, qayd etish, toʻplash, oʻrganish va qoʻllanish nazariyasi va amaliy usullari haqidagi fan. Manbashunoslik tarixshunoslikda yordamchi fan sohalari (arxeografiyaarxivshunoslik, genealogiya – nasabshunoslik, metrologiya – oʻlchovshunoslik epigrafika, tekstologiya – matnshunoslik, xronologiya – davrshunoslik,eraldika – gerbshunoslik, numizmatika – tangashunoslik va sfragistika – muhrshunoslik) qatorida yetakchi oʻrinda turuvchi alohida ilmiy soha. Manbashunoslikning bevosita tadqiqoti yozma manbalar ustida boʻlsada, ammo, uning asosiy ilmiy va amaliy uslubiyati tarixiy qadriyatlarning barcha turlarini oʻrganishda va tanqidiy tahlil etishda qoʻllaniladi. Manbashunoslik ikkiga – amaliy va nazariy manbashunoslikka boʻlinadi.

Zamin – oʻymakor va naqqoshlikda naqsh bezagining asosi.

Izora – panel, devorning pastki bezak qismi.

Iroqi – muqarnas turi, shaklli ravoqchalar o‘zaro kesishishi asosida yasaladi.

Islimiy – o‘simlik shoxlari ko‘rinishidagi naqsh turi

Koshin – yuzasiga sir berib pishirilgan sopol yoki g‘ishtcha.

Kungura – devor tepasidagi tish qatori.

Kundal – devoriy bezak turi. Mo‘yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo‘rtma shakl oladi, ustidan bo‘yoq va zarhal beriladi.

Kursi – binoning pastki qismi, ustun asosi.

Linga – ravoq yoki gumbaz bog‘lashda ishlatiladigan yog‘och (ganch) qolip chizig‘i.

Maqbara – turbat, marqad, qabr ustiga qurilgan bino.

Mehrob – masjid ichidagi ravoqli sajdagoh.

Muqarnas – ravoqli kosachalardan tashkil topgan murakkab hajmdagi bezak turi, karniz shaklidagi muqarnasga *sharafa* deyiladi.

Peshtoq – binolarning kirish qismidagi usti baland ko‘tarilgan ravoqli qismi.

Parchin – mayolika, rang-barang sir berib pishirilgan koshin.

Pilpoya – pilon, gumbaz va tomlarni ko‘taruvchi ustunga o‘xshash g‘ishtin tirgak.

Sardoba – usti gumbaz bilan berkitilgan hovuz.

Tanob – naqsh asosini tashkil etuvchi o‘zak yo‘l.

Tarz – bino fasadi, umumiy tashqi ko‘rinishi.

Tarh – bino plani, umuman turli hajmdagi bezak yoki konstruksiyalarning muqarnas, iroqi, gumbaz va ravoq kabi) gorizontal tekislikdagi proyeksiyasi.

Tim – usti berk bozor binosi.

Vassa – ayvonni yopishda bololar (to‘sinlar) ustidan teriladigan yarim shaklidagi taxta

Xonaqoh – masjidning mehrobli xonasi.

Chorraha – ikki ko‘chaning kesishgan joyi.

Sharafa – shift bilan devorni tutashtirib turuvchi mehrob.

Shohnishin – mehmonxona, uy va saroylar to‘ridagi sufali joy.

TEST SAVOLLARI

1. Qo'lyozmalarni tadqiq etuvchi fan, bu...
A) Paleografiya B) Epigrafika S) Arxeografiya D) Geneologiya
2. Temuriylar davrida qaysi yozuv turidan ko'proq fodalanilgan?
A) nasta'liq B) ko'fiy S) nash D) suls
3. Qaysi yozuvning ilk ko'rinishlari mezolit davrida vujudga kelgan?
A) piktografik B) logografik S) bo'g'in yozuv D) harfiy yozuv
4. Logografik yozuvdagi nayza tasviri nimani anglatgan?
A) jangni B) jangchini S) olg'a yurishni D) havfni
5. Yo'nalishni ko'rsatuvchi ko'rsatgich barmoq tasviri qaysi yozuv turiga kiradi?
A) piktografik B) logografik S) bo'g'in yozuv D) harfiy yozuv
6. Qaysi yozuv turi ideografiya deb ham atalgan?
A) logografik B) piktografik S) bo'g'in yozuv D) ideografiya
7. Mixxat yozuviga qaysi yozu asos bo'lgan?
A) piktografik B) logografik S) Bo'g'in yozuv D) ideografiya
8. Dastlab italiyalik savdogar Pyestro Chella Valle tomonidan o'qilgan yozuv turini aniqlang.
A) mixxat B) logografik S) piktografik D) ideografiya
9. Mil. avv. VI-IV asrlarda Qadimgi Fors davlati devonxonalarda davlat ahamiyatiga molik hujjatlar qaysi tilda olib borilgan?
A) oromiy B) somiy S) finikiy D) mixxat
10. Zardo'shtiylarnin muqaddas kitobi "Avesto" dastlab qaysi tilda yozilgan?
A) oromiy B) somiy S) finikiy D) mixxat
11. Oromiy yozuvi asosida vujudga kelgan, kvadrat shakldagi yozuv turi, bu...
A) yahudiy B) arab S) sanskrit D) mixxat
12. O'rta Osiyo xalqlari foydalangan eng qadimgi yozuv, bu...
A) pahlaviy B) so'g'd S) Baqtriya D) Parfiya
13. Ahamainiylar davridagi klassik oromiy yozuvi tarmoqlaridan biri bo'lgan yozuv turini aniqlang.
A) Qadimgi Xorazm yozuvi B) So'g'd yozuvi
S) Baqtriya yozuvi D) Parfiya yozuvi
14. Oyrot yozuvi qaysi yozuv asosida vujudga kelgan?
A) uyg'ur B) O'rxun S) Yenisey D) Parfiya
15. Xuroson va Movarounnahrda hattotlar arab yozuvining baysi turini kashf qilganla?
A) ta'liq B) kufiy S) nash D) Suls

16. Arab harflari asosidagi fors va turkiy tillar yozuvining shakllanishi nech bosqichda bo'lgan?
A) 3 B) 2 S) 4 D) 5
17. Islom diniga etiqod qiluvchi arablarda arab yozuvining necha turi bo'lgan?
A) 7 B) 3 S) 5 D) 6
18. Quyidagi yozuv turlaridan qaysi biri arablar tomonidan yaratilgan?
A) riqo B) ta'liq S) shikastayi ta'liq D) nasta'liq
19. Aholisi qogoz ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lgan Chorsu va Qog'ozgar dahalari qaysi shaharda bo'lgan?
A) Qo'qon B) Namangan S) Toshkent D) Buxoro
20. 1923 yil 3-9 oktabr kunlari Buxoroda bo'lgan konferensiya nimaga bag'ishlangan edi?
A) orfografiya B) paleografiya S) epigrafika D) Arxeografika
21. Mahfiy, yashirin harakatni anglatuvchi yozuv turi, bu...
A) kriptografiya B) piktografiya S) logografiya D) Ideogramma
22. «Epigrafika» so'zi nimani bildiradi?
A) bitikni B) daftarni S) bosma kitobni D) qo'lyozmani
23. Epigrafika fani qachon vujudga kelgan?
A) uyg'onish davrida B) eramizdan avval S) eramiz boshida D) XX asrda
24. Epigrafika fanining metodikasi qachon ishlab chiqilgan?
A) VIII-XIX asrlarda B) XVI asrlarda S) XVII asrlarda D) XIX asrlar oxirida
25. Qattiq jismlaga yozilgan yozuvlarni o'rganuvchi fan bu...
A) epigrafika B) paleografiya S) numizmatika D) sfragistika
26. Epigrafikaning dastlabki bosqichida qaysi tildagi bitiklar o'rganilgan?
A) lotin, yunon, qadimgi yahudiy, finikiy B) lotin, yunon, ivrit, finikiy
S) ingliz, yunon, finikiy D) lotin, yunon, arab, finikiy
27. O'rxun-Yenisey yozuvi namunalari dastlab qayerdan topilgan?
A) Yenisey daryosi qirg'og'idan B) O'rxun daryosi qirg'og'idan
S) Amudaryo qirg'oqlaridan D) Nil daryosi qirg'og'idan
28. O'rxun-Yenisey yozuvi yana qanday yozuv deb ataladi?
A) Runik yozuv B) Uyg'ur yozuvi S) Sanskrit D) Ivrit
29. XVIII asrdan boshlab epigrafikaning predmeti hisoblangan bitiklar qaysi tilga oid?
A) finikiy B) lotin S) yahudiy D) yunon
30. Moavit shohi Meshinning bitigi qaysi tilda bo'lgan?
A) yahudiy B) lotin S) finikiy D) yunon

31. Moavit shohi Meshinning bitigi nechanchi asrga oid?
A) Mil.avv. IX asrga B) Mil.avv.XI-VIII asrlarga S) Mil.avv.4-3 ming yilliklar D) Mil.avv. VI asrga
32. Qadimgi Misr bitiklari nechanchi asrga oid?
A) Mil.avv.4-3 ming yilliklar B) Mil.avv. IX asrga
S) Mil.avv.XI-VIII asrlarga D) Mil.avv. VI asrga
33. Yunon bitiklari nechanchi asrga oid?
A) Mil.avv.XI-VIII asrlarga B) Mil.avv.4-3 ming yilliklar S) Mil.avv. IX asrga D) Mil.avv. VI asrga
34. Shimoliy arab bitiklari qaysi tilda yozilgan? A) nabatiy B) arab S) pahlaviy D) Saba
35. Akkad, ugarit va qadimiy fors tilida yozilgan bitiklarga qaysilar kiradi?
A) ikki daryo oralig'i bitiklari B) Qadimgi Eron bitiklari S) Qadimgi Misr bitiklari D) Saba bitiklari
36. Tamil tilidagi bitiklar qayerdan topilgan?
A) Hindiston B) Mesopotamiya S) Gruziya D) Betnam
37. Hin-Gang pasttekisligidagi qadimiy bitiklar nimalarga bitilgan?
A) muhr va tumorlarga B) qoyatoshlarga
S) ibodatxona devorlariga D) toshbaqa kosasiga
38. Qadimgi Xitoy bitiklari nimalarga bitilgan?
A) toshbaqa kosasiga B) muhr va tumorlarga
S) qoyatoshlarga D) ibodatxona devorlariga
39. Sapoteklarga oid bitiklar qaysi hududdan topilgan?
A) Markaziy Amerika B) Shimoliy Amerika
S) Janubiy Amerika D) Alyaska
40. Budda diniga oid 700 sahifalik diniy qo'lyozma kitob qaysi tilda bitilgan?
A) uyg'ur B) manixey S) braxma D) suriya

MUNDARIJA

Kirish.....	
«Oʻrta Osiyoda paleografiya, epigrafika va meʼmorchilik tarixi» fanining maqsad va vazifalari.....	
«Paleografiya»ning fan sifatida vujudga kelishi va insoniyat tarixidagi yozuv turlari.....	
Arab paleografiyasi tarixi.....	
Oʻzbek paleografiyasi tarixi.....	
Epigrafikaning fan sifatida vujudga kelishi va epigrafik matnlarning turlari...	
Dunyo xalqlari epigrafikasi.....	
Oʻrta Osiyo epigrafik yodgorliklari.....	
Qadimgi davr meʼmorchiligi.....	
Oʻrta asrlar davri meʼmorchiligi.....	
Yangi tarix davri meʼmorchiligi.....	
Oʻrta Osiyoda meʼmorchiligining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi.....	
Samarqand shahri meʼmorchiligi tarixi.....	
Buxoro shahri meʼmorchiligi tarixi.....	
Xiva shahri meʼmorchiligi tarixi.....	
Glossariy.....	
Test savollari.....	